MAKTAB O'QITUVCHILARI,
TARBIYACHILAR HAMDA
YUQORI SINF
O'QUVCHILARI UCHUN

# ESLATMALAR



MAKTAB O'QITUVCHILARI,
TARBIYACHILAR HAMDA YUQORI
SINF O'QUVCHILARI UCHUN

# ESLATMALAR

«Namangan» nashriyoti
2014

UO'K: 821.512.133-9
KBK: 8(5 o'zb)7
K-58

*Ma'naviyat insonga ona suti, ota ibrati va ajdodlar o'giti bilan birga singadi.*

**Islom KARIMOV.**

*Tuzuvchi:* **Muhammadrasul KIMSANBOEV**

ISBN-978-9943-4341-8-9

© "Namangan" nashriyoti
© M.Kimsanbayev, 2014yil.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

O'zbekiston Markaziy Osiyoda, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan jannatmakon diyordir. U shimoli-sharqda Qozog'iston, sharq va janubi-sharqda Qirg'iziston hamda Tojikiston, g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston va janubda Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Respublika davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 kilometrga teng. Shundan 2203 kilometri Qozog'istonga, 1621 kilometri Turkmanistonga, 1161 kilometri Tojikistonga, 1099 kilometri Qirg'izistonga va 137 kilometri Afg'onistonga to'g'ri keladi.

Respublika g'arbdan sharqqa 1425 kilometrga va shimoldan janubga 930 kilometrga cho'zilgan. Uning umumiy yer maydoni 447,4 ming kvadrat kilometrga teng. O'zbekiston nechog'lik katta va ulkan mamlakat ekanligini shundan ham bilsa bo'ladiki, uning salobatli bag'riga Yevropaning Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Avstriya, Shveytsariya kabi davlatlarning barchasini sig'dirish mumkin.

O'zbekiston hududining qariyb uchdan ikki (g'arbiy) qismi pasttekislik va tekisliklardan iborat, uchdan bir (sharqiy) qismi esa balandlik va tog'liklardir. Uch tomoni tog'lar bilan o'ralgan va faqat g'arbiy tomonigina ochiq bo'lib, 370 kilometrga cho'zilgan, eni esa 190 kilometrni tashkil etuvchi Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyoning tengi yo'q go'shasidir. Vodiyning asosiy qismini Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari egallagan.

O'zbekiston Respublikasi tarkibida 12 viloyat va Qoraqal-pog'iston Respublikasi mavjud. Aholi soni 30 mln. kishidan ziyod. Davlatimizning siyosiy va ma'muriy markazi Toshkent shahridir.

## VATANIMIZNING DUNYO MAMLAKATLARI BO'YICHA *KO'RSATKICHLARI:*

O'zbekiston hududiy kattaligi bo'yicha dunyoda 55-o'rinni, aholi soni bo'yicha 42-o'rinni egallaydi.

Yurtimiz yetakchi mamlakatlar orasida oltin zahirasi bo'yicha to'rtinchi, uran zahirasi bo'yicha yettinchi-sakkizinchi, mis zahirasi bo'yicha o'ninchi-o'n birinchi, tabiiy gaz zahiralari bo'yicha o'n to'rtinchi o'rinlarni egallashi qayd etilgan. Su'niy o'zlashtirilgan yerlari bo'yicha O'zbekiston dunyoda o'n birinchi o'rindadir.

**Qazib olishda:** Uran qazib olish bo'yicha oltinchi, oltin va tabiiy gaz qazib olish bo'yicha sakkizinchi pog'onada.

**Ishlab chiqarishda:** Qorako'l teri bo'yicha ikkinchi, paxta ishlab chiqarish bo'yicha beshinchi, ipak xom-ashyosi bo'yicha oltinchi o'rinda.

Chet davlatlariga paxta eksport qilish borasida ikkinchi, uran eksport qilishda uchinchi o'rinda turadi.

Bugungi kunda qadimiy va navqiron shaharlarimiz dovrug'i yetti iqlimga mashhur. Ular o'z zamonasida quyidagi yuksak nomlar bilan mashhur bo'lishgan:

Samarqand - Sayqali ro'yi zamin ast (Er-osmon ko'rki);

Buxoro - Quvvati islomi dini ast (islom dinining quvvati);

Shahrisabz-Qubbatul ilm al adab (ilm va odob qubbasi belgisi) kabi sifatlarga ega bo'lib, ularni butun dunyo allomalari e'tirof etganlar.

O'zbekiston yonilg'i-energetika kompleksida anchagina zahirasi bo'lgan ko'mir juda muhim o'rinni egallagan. Mutaxassis olimlarning hisoblariga qaraganda ko'mirning umumiy resurslari qariyb besh milliard, balansdagi zahiralari uch milliard tonnadan ko'proq bo'lib, buning uchdan bir qismi toshko'mirdir. Balansdagi zahira yiliga 10 milion tonnadan qazib olingan taqdirda bu yonilg'i 300 yilga yetadi.

-Istiqlol yillarida O'zbekistonda yoqilg'i energetikasi, g'alla mustaqilligiga erishildi.

- Yurtimizda aholi salomatligi mustahkamlanib, onalar o'limi 3,2 barobarga, bolalar o'limi 3,4 barobarga kamaydi.

- Odamlarimizning o'rtacha umr ko'rish darajasi 66 yoshdan 73,5 yoshga uzaydi.

## AHOLI ZICHLIGI

O'zbekiston hududining atiga 4 foizini egallagan Farg'ona vodiysining uch viloyatida (Andijon, Namangan, Farg'ona) mamlakat aholisining 28-30 foizi istiqomat qiladi.

Respublikaning dasht mintaqalarida aholi juda siyrak, hududning har bir kvadrat kilometriga to'g'ri keladigan aholi soni bir kishidan kam.

Andijon viloyati esa aholi zichligi bo'yicha (1kv.km.ga 559,2 kishi) hatto aholisi nihoyatda zich bo'lgan Moskva viloyatidan ham oldinda turadi va MDH mamlakatlari orasida birinchi o'rinni egallaydi.



Respublika hududining bir foizidan kamroq qismini egallaydigan Andijon viloyatida O'zbekiston aholisining to'qqiz foizi yashaydi. *Farg'ona viloyatida 1 kv.km.da 425,8, Namangan viloyatida 281,0,* Toshkent viloyatida 300 kishi istiqomat qiladi.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARKIBIDA:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, 120 ta shahar, 117 ta shaharcha, 159 ta qishloq tumani, 1459 qishloq (ovul) mavjud.

Toshkent shahridan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarigacha bo'lgan masofa (km):

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus | 1265 | Andijon | 497 |
| Urganch | 1119 | Namangan | 432 |
| Termiz | 708 | Farg'ona | 419 |
| Buxoro | 616 | Samarqand | 354 |
| Qarshi | 558 | Jizzax | 203 |
| Navoiy | 509 | Guliston | 118 |

## LOTIN YOZUVIGA O'TISH

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarning deyarli hammasi lotin yozuvidan foydalanadilar. Barcha hozirgi zamon yangi texnika va texnologiyalari asosan lotin yozuviga asoslangan. Biz mustaqil O'zbekis-tonni zamonamizning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqmoqdamiz. Lotin yozuviga o'tish ana shu oliyjanob vazifani bajarishning muhim omillaridan biridir. Bu jarayonning mushkul va murakkab ekanligini ko'zda tutib, vatanimizda lotin yozuviga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ammo lotin alifbosiga o'tish rus tilini o'rganishimizga aslo putur yetkazmasligi kerak. Rus tili jahonda eng keng tarqalgan yettita tilning biri hisoblanadi.

Bu tillar (ingliz, fransuz, nemis, arab, xitoy, ispan) qatori rus tili va yozuvini ham mukammal o'zlashtirish, o'rganish yosh avlodning kelgu-sida barkamol shaxs bo'lib shakllanishining muhim omillaridan biridir.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NECHTA DAVLAT BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR O'RNATGAN?

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 166 davlat rasman tan olgan. Rasmiy diplomatik aloqalar jahonning 131 mamlakati bilan o'rnatilgan.

Toshkentda 44 mamlakat o'z elchixona va vakolatxonalarini ochgan. 30 dan ortiq mamlakatda O'zbekistonning diplomatik vakolatxonalari ochilgan.

Respublikamizda 80 dan ortiq chet el vakolatxonalari va 20 dan ortiq hukumatlararo muassasalar faoliyat olib bormoqda.

Mustaqil O'zbekiston diplomatiya sohasida o'z salohiyati va an'analari borasida aniq, asoslangan va uzoqqa mo'ljallangan siyosatni olib bormoqda.

Diplomatiya kadrlarini tayyorlash uchun 1993 yildan Toshkentda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti faoliyat ko'rsatmoqda.

## MUSTAQIL O'ZBEKISTON TARKIBIDAGI SUVEREN QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi.

1924 yili Turkiston ASSRning Amudaryo viloyati va Xiva xonligining Xo'jayli hamda Qo'ng'irot tumanlari hududida Qozog'iston ASSR tarkibida, Qoraqalpog'iston avtonom viloyati tashkil etildi. U 1932 yili Qoraqalpog'iston avtonom Respublikasiga aylantirildi.

Qoraqalpoqlar tarixida 1936 yil muhim siyosiy voqealar yili sifatida abadiy qoladi. Shu yili ular o'z taqdirlarini O'zbekiston tarkibiga kirish bilan belgiladilar va o'zlari tanlagan yo'lning istiqbolli ekanligini ko'ra oldilar.

1990 yil 14 dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi o'zining IV sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat suvereniteti to'g'risida"gi Deklaratsiya qabul qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi o'zining XII sessiyasida (1993 yil, 9 aprel) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hech qanday mone'lik qilmaydi, aksincha, uni bosh huquqiy asos sifatida biladi va Qoraqalpog'iston hududida to'la amal qilishini ta'minlaydi.

Qoraqalpog'iston suveren Respublika sifatida barcha atributlariga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy majlisining XI sessiyasida (1992 yil, 14 dekabr) Qoraqalpog'iston Davlat bayrog'i, XII sessiyasida (1993 yil, 9 aprel) Davlat Gerbi, XIV sessiyasida (1993 yil, 24 dekabr) Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining parlamenti Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deb ataladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ijroiya organi Vazirlar Kengashi hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi bo'linmas va daxlsizdir. Qoraqalpoq tili uning davlat tili deb e'lon qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hamdir.

Respublika hududi 166,6 ming kv.km., aholisi 1704,4 ming kishi (qoraqalpoqlar 32,1 %, o'zbeklar 32,3 %, qozoqlar 26,3 %. Qolgan 9,3 foizi - turkmanlar, koreyslar, tatarlar, ruslar, ukrainlar va boshqalar).

Qoraqalpog'iston Respublikasida 14 ta tuman, 12 shahar, 16 ta shaharcha va 112 ta ovul bor. Poytaxti - Nukus shahri (aholisi 271,4 ming kishi). Nukusda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston filiali, Qoraqalpoq davlat universiteti, pedagogik institut, bir qancha Toshkent oliy o'quv yurtlarining filiallari mavjud.

**1992 yil 9 yanvar** - Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi tarkibida suveren respublika bo'lishi Nukus shahrida bo'lib o'tgan Oliy Kengash sessiyasida qonun yo'li bilan mustahkamlangan kun.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raislari: Ubbiniyaz Ashirbekov (1992-1997), Timur Kamolovich Kamolov (1997-2002), Musa Tajetdinovich Emiyazov (2002 yil 3 maydan).

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raislari: Rajapboy Yuldashev (1992-1995), Bahrom Jumaniyazov (1995), Saparbay Avezmatov (1995-1998), Amin Tojiev (1998-2002), Tursunboy Tlebayevich Tangribergenov (2002-2006), Bahodir Yangiboev (2006 yildan).

## DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMI

Bu tizim ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi idoralar tizimi, ya'ni ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tizimidan iborat. O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti - davlat boshlig'i va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlovchi sifatida;

O'zbekiston Respublikasi hukumati;

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari;

O'zbekiston Respublikasi davlat qo'mitalari;

O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat boshqaruvi idoralari va uning joylardagi mahalliy organlari;

Viloyat, shahar, tuman hokimlari, hokimiyatlar hamda ularning bo'lim va boshqarmalari.

Davlat boshqaruvi tizimining tarmoqlari va yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida va har bir sohaga tegishli qonun, ko'rsatma va shu kabi boshqa hujjatlarga tayanib ish olib boradi.

## OLIY MAJLIS

Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Oliy Majlis ikki palatadan: Qonunchilik palatasi (quyi palatadan) va Senatdan (yuqori palatadan) iborat.

Qonunchilik palatasi va Senatning vakolat muddati besh yil. Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglaridan qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik nafar deputatdan iborat.

Oliy Majlis Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlar deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda olti kishidan saylanadi. O'n olti nafar a'zosi esa fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish



sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarosi Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, Senat a'zosi bo'lishi mumkin.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Qonunchilik palatasi va Senat a'zosi bo'lishi mumkin emas.

## OLIY MAJLIS SENATI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

1. Senat raisi va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;
2. Respublika Prezidentining taqdimiga binoan Respublika Konstitutsiyaviy sudi sudyasini, Oliy sudi sudyasini, Oliy xo'jalik sudi sudyasini saylash, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;
3. Respublika Prezidentining Respublika Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash hamda Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va lavozimlaridan ozod etish to'g'risidagi Farmonlarini tasdiqlash;
4. Respublika Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekistonning chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini hamda Respublika Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va ularni lavozimlaridan ozod etish;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish;
6. Respublika Bosh prokurorining taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati a'zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;
7. Bosh prokurorning, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, Markaziy bank boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish va boshqalar.

## OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi (quyi palata) mutloq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalar raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish;

3. O'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan Qarorlar qabul qilish;

4. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish va boshqalar.

Qonunchilik palatasi 150 ta deputatdan iborat.

Parlament fransuzcha so'z bo'lib (so'zlashmoq, so'zlang) rasmiy so'zlashish degan ma'noni anglatadi. Jahonning 75 ta davlati ikki palatali parlament tizimiga o'tgan.

Senat so'zi lotincha "SENALUS", "SINEX" so'zlaridan olingan bo'lib oqsoqol, mo'ysafid degan ma'noni anglatadi.

## VAZIRLAR MAHKAMASI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, agentliklar direktorlaridan iborat. Qoraqalpog'iston hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi va vakolatlari faqat O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan belgilanadi, u yangi saylangan parlament oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.



O'zbekiston Respublikasida 14 vazirlik (Moliya, Iqtisodiyot, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, Madaniyat va sport ishlari, Ichki ishlar, Tashqi ishlar, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo, Mudofaa, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi, Qishloq va suv xo'jaligi, Adliya, Sog'liqni saqlash, Favqulodda vaziyatlar), 9 Davlat qo'mitasi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, 7 ta agentlik faoliyat yuritmoqda.

## PREZIDENTLIK LAVOZIMI

Respublika boshqaruv tizimidagi mamlakatlarda davlat boshlig'i - prezidentlik lavozimi birinchi marta 1787 yilda AQSH da joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasida Prezident davlat boshlig'idir va u davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimiga 35 yoshga to'lgan, bevosita saylovgacha O'zbekiston hududida kamida 10 yil muqim yashagan, davlat tilini yaxshi biladigan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi.

O'zbekistonda Prezidentlik lavozimi sobiq ittifoq respublikalari orasida birinchi bo'lib joriy qilingan. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimi 1990 yil 20 martda Oliy Kengashning I sessiyasida ta'sis etildi.

1991 yilning 29 dekabrida O'zbekiston tarixida birinchi bor muqobillik asosida Respublika Prezidentligiga umumxalq saylovi bo'lib o'tdi, bu lavozimga eng ko'p ovoz bilan Islom Abdug'aniyevich Karimov saylandi.

- 1995 yil 26 martda bo'lib o'tgan umumxalq referendumi yakunlariga ko'ra Islom Karimov Prezidentlik vakolati 2000 yilga qadar uzaytirildi.
- 2000 yil muqobillik asosida o'tgan saylov natijalariga ko'ra Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq Islom Karimov 7 yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

- 2007 yil 23 dekabrda muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Prezident saylovi tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

Prezident shaxsiy daxlsizligi qonun bilan muhofaza qilinadi. Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi. (O'zbekiston Respublikasi. entsiklopedik ma'lumotnoma. G'ulom To'xliev, Alla Kremensova va boshqalar. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. "Davlat uyi" nashriyoti, 2007 yil. 183-bet. Farhod Xolsaidov, O'rinboy Boboyorov, Ma'naviyat - qalb quyoshi, ma'lumotnoma. T. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa uyi, 2011 yil.)

O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 12 dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitu-tsiyasi 90-moddasining ikkinchi qismiga tuzatish kiritilib, Prezident besh yil muddatga saylanishi belgilab qo'yildi.

Shuning uchun yuqoridagi manbalardan foydalangan o'quvchi Prezidentlik lavozimi muddati haqida chalg'imasligi kerak. Bu haqda aniq ma'lumot uchun 2012 yilgi nashr qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan foydalanishi mumkin.

## KARIMOV ISLOM ABDUG'ANIEVICH

Islom Abdug'aniyevich Karimov - Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti, taniqli davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni, Milliy xavfsizlik kenga-shining raisi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov 1938 yilda Samarqand shahrida tavallud topgan. O'rta Osiyo politexnika va Toshkent xalq xo'jaligi institutlarini tamomlagan .

Mehnat faoliyatini 1960 yilda "Tashselmash" zavodida boshlagan.

U 1966 yildan boshlab 17 yil mobaynida O'zbekiston Davlat rejalashtirish qo'mitasida yangi texnika joriy etish bo'limining mutaxassisligidan mazkur qo'mita raisining birinchi o'rinbosarligigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan.

1983 yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vaziri etib tayinlangan.



1989 yil 23 iyulda O'zbekiston Respublikasi Kompartiya qo'mitasining birinchi kotibligiga saylangan.

1986 yilda O'zbekiston Ministrlar Soveti raisining o'rin-bosari - O'zbekiston davlat rejalashtirish qo'mitasining raisi. Shu yilning dekabrida Qashqadaryo viloyati partiya qo'mitasining birinchi kotibligiga saylangan.

1990 yilning martida Respublika Oliy Kengashi uni O'zbekiston SSR Prezidenti etib sayladi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov 1991 yil 31 avgustda O'zbekistonning davlat mustaqilligini e'lon qildi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov 1991 yil 29 dekabrda birinchi bor muqobil saylov asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekistonda davlat tizimini mustahkamlashda, Respublikaning ichki va tashqi siyosatida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda jonbozlik ko'rsatmoqda.

1995 yil 26 martda bo'lib o'tgan umumxalq referendumi yakunlariga ko'ra Islom Abdug'aniyevich Karimovning prezidentlik vakolati 2000 yilga qadar uzaytirildi.

2007 yili 23 dekabrda umumxalq saylovlari natijasiga ko'ra Islom Abdug'aniyevich Karimov 88.1% ovoz bilan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga saylandi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov "Istiqlol yo'li, muammolar va rejalar", "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat", "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li", Bizdan obod va ozod vatan qolsin", "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va kafolatlari", "Istiqlol va ma'naviyat" va boshqa bir qator kitoblar muallifidir.

Islom Abdug'aniyevich Karimov "O'zbekiston qahramoni" unvoni sohibi (1994), "Mustaqillik" (1996), "Amir Temur"(1998) ordenlari bilan mukofotlangan.

Islom Abdug'aniyevich Karimov xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tinchlikni mustahkamlash, ma'naviyatni tiklash, sportni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun bir qator xalqaro tashkilotlar hamda nufuzli xorijiy davlatlarning orden va medallari bilan mukofotlangan.

Oilali, ikki nafar farzandi, uch nafar nabirasi bor.

Rafiqasi T. A. Karimova - iqtisodchi.

Vatanimizni dunyo ichra yuksakroq mavqe'ga ega bo'layotgani Prezident Islom Karimov nomi bilan chambarchas bog'liq. Yurtboshimiz har bir sohada o'tkazilayotgan tub islohotlarning, xususan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi kabi muhim tarixiy hujjatlarning bosh g'oya muallifi hamdir.

## ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOVNING CHOP ETILGAN ASARLARI

1.O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura (1996)

2.Bizdan ozod va obod Vatan qolsin (1994)

3. Bunyodkorlik yo'lidan (1996)

4. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir (1996)

5. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi (1997)

6. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida (1998)

7. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz (1999)

8. Ozod va obod Vatan, yorqin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz (2000)

9. Vatan ravnaqi uchun xar birimiz ma'sulmiz (2001)

10. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak (2002)

11. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li.

12.Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq (2005)

13. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi (2005)

14. Inson, uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat (2006)

15.Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlami chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir.(2007)

16. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. (2008)

17. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch (2008)

18. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. (2009)



19. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni moderni-zatsiya qilish va taraqqiy etgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari (2010)

20. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. (2011)

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAHBARIYATI

**ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo'mondoni.**

**SOBIROV ILGIZAR MATYOQUBOVICH – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi.**

**TOSHMUHAMEDOVA DILOROM G'OFURJONOVNA – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikeri.**

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI

**MIRZIYOEV Shavkat Miromonovich** - O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri.

**AZIMOV Rustam Sodiqovich** - O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari – Moliya vaziri, Makroiqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlar va hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari majmuasi rahbari.

**ZOKIROV Botir Irkinovich** – O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari majmuasi rahbari.

**IBRAGIMOV G'ulomjon Inomovich** – O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – Geologiya, yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati masalalari majmuasi rahbari.

**ROZUQULOV Ulug'bek Ubaydullayevich** – O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – «O'zavtosanoat» AK boshqaruv raisi, mashinasozlik, elektrotexnika va aviatsiya sanoatini rivojlantirish, mahsulotlami standartlashtirish masalalari majmuasi rahbari.

**IKROMOV Adham Ilhomovich** – O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza majmuasi rahbari.

**BASITXANOVA Elmira Irkinovna** – O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi raisi.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLARI

**AZIMOV Rustam Sodiqovich** – O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri.

**SAIDOVA Galina Karimovna** – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vaziri.

**XAYITOV Aktam Axmatovich** – O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vaziri.

**HOJIMATOV Minhojiddin Mirzajonovich** – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vaziri.

**AHMEDBAEV Adham Akramovich** – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri.

**KOMILOV Abdulaziz Hafizovich** – O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri.

**G'ANIEV Elyor Majidovich** – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri.

**BERDIEV Qobul Raimovich** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri.

**VAHOBOV Alisher Vosiqovich** – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri.

**INOYATOV Ulug'bek Ilyasovich** – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri.

**TESHAEV Shuhrat Jo'raqulovich** – O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vaziri

**YO'LDOSHEV Nig'matulla To'lqinovich** – O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri.

**ALIMOV Anvar Valiyevich** – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri.

**XUDAYBERGANOV Tursinxon Aydarovich** – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri.



## DAVLAT QO'MITALARI RAISLARI

Davlat Geologiya va mineral resurslar qo'mitasi raisi - **TURAMURATOV Ilhomboy Bekchanovich.**

Davlat Bojxona qo'mitasi raisi - **DUSANOV Zohid Abdulqayumovich.**

Davlat Soliq qo'mitasi raisi - **PARPIEV Botir Rahmatovich.**

Davlat Statistika qo'mitasi raisi – **TO'RAEV Botir Eshbayevich.**

Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi – **ABDULHAKIMOV Aziz Abduqaharovich.**

Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi – **ZOKIROV Botir Irkinovich.**

Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bo'yicha davlat qo'mitasi raisi – **ARABOV Saidqul Amirovich.**

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi – **UMAROV Narimon Madjidovich.**

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining raisi – **MIRZOHIDOV Xurshid Mirsabirovich.**

## FARG'ONA VILOYATI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

Maydoni: 6,76 ming kv.km, aholisi 3 mln. 386,1 ming kishidan ziyod. (01.01.2014)

Tarkibida 4 ta shahar, 15 ta tuman va 197 shaharcha (shahar tipidagi posyolka) mavjud, chegaralarining umumiy uzunligi 579,5 km.

Markazi: Farg'ona shahri.

Tabiati: Farg'ona viloyati yuqori seysmik zona hisoblanadi. Iqlimi kontinental. Viloyatning shimoli-g'arbiy chegarasi bo'ylab Sirdaryo oqadi. Oloy tizmasida Isfara, So'x, Shohimardon, Isfaramsoy boshlanadi.

Aholisi asosan o'zbeklar, shuningdek tojik, qirg'iz, tatar va boshqa millat vakillaridan iborat.

Xo'jaligi: viloyatda 1483 ga yaqin sanoat qorxonalari mavjud.

Sanoatning yetakchi tizimlari: yoqilg'i-energetika, kimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari, paxta tozalash va qayta ishlash, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati va boshqalar.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, g'allachilik, pillachilik, bog'dorchilik va chorvachilik.

Farg'ona Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Huvaydo, Nodira, Uvaysiy, Gulxaniy, Xaziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Abdulla Qahhor, Sobir Abdulla, Charxiy, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Yo'ldosh Sulaymon, Xudoyberdi To'xtaboev, Oxunjon Hakimov, Anvar Obidjon, Iqbol Mirzo kabi ko'plab' allomalar, mashhur shoir va yozuvchilar vatani hisoblanadi.

## TUMANLAR VA ULARNING MARKAZLARI

1. Bag'dod – Bag'dod shaharchasi.
2. Beshariq – Beshariq shaharchasi.
3. Buvayda – Yangiqo'rg'on shaharchasi.
4. Dang'ara – Dang'ara shaharchasi.
5. Yozyovon – Yozyovon shaharchasi.
6. Oltiariq – Oltiariq shaharchasi.
7. Qo'shtepa – Langar shaharchasi.
8. Rishton – Rishton shaharchasi
9. So'x – Rovon shaharchasi.
10. Toshloq – Toshloq shaharchasi.
11. Uchko'prik – Uchko'prik shaharchasi.
12. Farg'ona – Vodil shaharchasi.
13. Furqat – Navbahor shaharchasi.
14. O'zbekiston – Yaypan shaharchasi.
15. Quva – Quva shaharchasi.

## FARG'ONA VILOYATI HOKIMLIGI

**G'ANIEV Shuhrat Madaminovich** – viloyat hokimi.

**SOBIROV Shuhrat O'rinbayevich** – viloyat hokimining birinchi o'rinbosari.

**PO'LATOV Akmal Azizovich** – viloyat hokimining o'rinbosari



**ZOKIROV Said Xoldarovich** – viloyat hokimining o'rinbosari

**XODJAEVA Mavluda Islomovna** – viloyat hokimining o'rinbosari, viloyat xotin-qizlar qo'mitasi raisi

**IMOMOV Qamariddin Abdupattohovich** – viloyat hokimining o'rinbosari

**SULTONOV Zufarjon Mamatxalilovich** – viloyat hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchisi

## FARG'ONA VILOYAT O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMI

Viloyat hokimligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasarrufida jami 156 ta ta'lim muassasasi, jumladan, 12 ta akademik litsey va 144 ta kasb-hunar kolleji mavjud.

Viloyatimizdagi kasb-hunar kolleji va akademik litseylarda 6105 ta to'garak faoliyat olib bormoqda. Ularning 4724 tasi fan to'garagi, 1381 tasi sport, 1771 tasi kasbiy bo'lib, ushbu to'garaklarda 98259 nafardan ziyod o'quvchi shug'ullanmoqda.

## FARG'ONA VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASINING RAHBARIYATI

**TESHABOEV Zikrillo Abdullayevich** – Boshqarma boshlig'i.

**RAHMONOVA Ozoda Jo'rayevna** – Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari.

## MUSTAQIL O'ZBEKISTON DAVLAT RAMZLARI

### DAVLAT BAYROG'I

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i 1991 yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan. Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi.

Oq rang – muqaddas tinchlik ramzi.

Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi.

Qizil chiziqlar – vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda u qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzi ham.

Yulduzlar barcha uchun ruhoniy, ilohiy timsol sanalgan. Davlat bayrog'imizdagi 12 yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

## DAVLAT GERBI

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzidir. U 1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda so'l tomonida bug'doy boshoqlari, o'ng tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iborat. Gerbning yuqori qismida respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir. Gerbning markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo'lgan afsonaviy humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bandiga "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

## DAVLAT MADHIYASI

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi 1992 yil 10 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan. Uning mualliflari O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Serquyosh hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali tinchlik posboni,
Xalqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

## DAVLAT BAYROG'I QACHON O'RNATILADI? MADHIYA QAY PAYTDA KUYLANADI?

**Davlat ramzlarini qadrlash – barchamizning muhim vazifamiz. Milliy timsollar va ramzlarning har biri milliy g'ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasidir.**

**Islom KARIMOV.**

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, davlat ramzlari to'g'risidagi qonunlarni rivojlangan xorijiy mamlakatlar va xalqaro hujjatlarga har tomonlama mosligini ta'minlash va ularni yanada takomillashtirish maqsadida 2010 yil 25 dekabr kuni «O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari haqidagi ayrim qonun hujjatlariga va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun rasmiy e'lon qilindi va kuchga kirdi. Mazkur Qonunga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonunga 11 ta, «O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonunga 6 ta, «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonunga 7 ta o'zgartish kiritildi.

Shu o'rinda yangi Qonunga muvofiq xar bir maktab o'quvchisi bilishi lozim bo'lgan qoidalarni sanab o'tish maqsadga muvofiqdir. Davlat bayrog'i:

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilangan bayram kunlarida – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari bilan belgilangan markaziy ko'chalarda, maydonlarda, boshqa jamoat joylarida va ob'ektlarda soat 6 da ko'tariladi va soat 22 da tushirib qo'yiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga, Senatiga, xalq deputatlari Kengashlariga saylovlar yoki referendum davri mobaynida ovoz berish o'tkazilayotgan binolar va xonalarda osib qo'yiladi;

Xorijiy davlatlar davlat va hukumat boshliqlarining, boshqa rasmiy delegatsiyalarning xalqaro huquq normalariga, diplomatik protokol qoidalariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasida bo'lishining tasdiqlangan dasturiga muvofiq transport vositalarida, vokzallarda,



aeroportlarda, yurish yo'nalishi bo'yicha va boshqa tashrif ob'ektlarida 24 soat oldin ko'tariladi va ular jo'nab ketganidan keyin 24 soat mobaynida tushirib qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i bilan bir vaqtda xorijiy davlatlar va (yoki) xalqaro tashkilotlar bayroqlari ko'tarilganda O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i xalqaro huquq normalariga va diplomatik protokol qoidalariga muvofiq ko'tariladi. Bunda O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i xorijiy davlatlar va (yoki) xalqaro tashkilotlar bayroqlari bilan bir xil balandlikda joylashtirilishi hamda bir xil o'lchamga ega bo'lishi kerak.

Ko'tarib qo'yilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining matosi yer sathidan kamida 2,5 metr balandlikda bo'lishi kerak. Davlat bayrog'ini tayyorlash, saqlash va yo'q qilish tartibi O'zbe-kiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy birlashmalarida, qo'shilmalarida va qismlarida, shuningdek boshqa harbiy tuzilmalarida –O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy ustavlariga muvofiq ko'tariladi.

Etiborga molik jihatlaridan biri shundaki, o'z manfaatlari yo'lida davlat ramzlaridan vosita sifatida foydalanishning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i va gerbining elementlarini nodavlat tashkilotlar hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallariga kiritilishiga yo'l qo'yilmasligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish man etilishi, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlari O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'iga va gerbiga o'xshash bo'lishi mumkin emasligi «O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonunga kiritilgan yangi $5^1$-moddada va «O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonunning yangi $5^1$ moddasida belgilab ko'yildi.

Ayni paytda, mazkur qonunlarning O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, shuningdek xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari tomonidan ijro etilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, boshqa davlat idoralari va tashkilotlar tomonidan ijro etilishi ustidan nazorat esa ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

«O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi yangi tahrirda bayon etildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish chog'ida – u qasamyod qabul qilganidan so'ng;

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi sessiyalarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati yalpi majlislarining ochilishi hamda yopilishi chog'ida;

3) O'zbekiston Respublikasida nishonlanadigan umummilliy bayram-larga bag'ishlangan tantanali yig'ilishlar va majlislarning ochilishi chog'ida;

4) Davlat televideniye va radioeshittirish kompaniyalari tomonidan har kuni – ko'rsatuv va eshittirishlar boshlanishidan avval va tugaganidan so'ng, ko'rsatuv va eshittirishlar kecha-yu kunduz olib borilganida esa soat 6 da va soat 24 da, yangi yil kechasida — soat 24 da;

5) Respublika hayotidagi muhim tarixiy voqealarni nishonlash yuzasidan, atoqli siyosiy, davlat, harbiy arboblar, xalq qahramon-lari, fan, adabiyot va san'at arboblari sharafiga o'rnatilgan haykallar, shuningdek monumentlar, yodgorliklar va boshqa inshootlarning ochilishi chog'ida;

6) Davlat organlari, boshqa tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan marosimlar va boshqa tantanali tadbirlar vaqtida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ini ko'tarish chog'ida;

7) Rasmiy safar bilan O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy davlatlar davlat va hukumat boshliqlarini kutib olish va kuzatish chog'ida – tegishli xorijiy davlatning davlat madhiyasi ijro qilib bo'linganidan keyin;

8) Harbiy marosimlarni o'tkazish vaqtida – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy ustavlariga muvofiq;

9) Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida – yangi o'quv yili boshlanishi va o'quv yili tugashi marosimlari chog'ida;

10) Sport maydonlarida – O'zbekiston Respublikasi chempionatlarini, milliy terma komandalar ishtirokida xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish vaqtida hamda xalqaro sport musoba-qalarining O'zbekiston Respublikasi sport terma komandalarining vakillari bo'lgan g'oliblarini mukofotlash marosimlarini o'tkazish vaqtida ijro etiladi.



O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ko'pchilik huzurida ijro etilganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, hozir bo'lgan kishilar madhiyani tik turib va o'ng qo'l kaftini ko'krakning chap tomoniga qo'yib, harbiy yoki davlatning boshqa xizmatidagi maxsus kiyimdagi shaxslar esa qo'lini bosh kiyimiga qo'yib tinglaydi. Agar O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining ijro etilishi O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ko'tarilishi bilan birgalikda amalga oshirilsa, hozir bo'lgan kishilar unga yuzi bilan buriladi. Mazkur Qonunning ijro etilishi ustidan nazorat ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bundan tashkari, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yangi **203¹-modda** kiritilib, davlat ramzlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi. O'zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog'iston Respubli-kasining Davlat bayrog'i, Davlat gerbi yoxud Davlat madhiyasi to'g'ri-sidagi qonun hujjatlarini buzish, –

fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, –

fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Quyidagi holatlarda davlat ramzlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanadi:

-Davlat bayrog'i va gerbining qonun hujjatlari bilan belgilangan ko'rinishlari, o'lchovlari, ranglari buzilsa;

-Davlat bayrog'ining doimiy ravishda osib qo'yilishi majburiy bo'lgan yoki osib qo'yishga ruxsat etilgan bino, xizmat xonalari, markaziy ko'chalar, jamoat joylari va ob'ektlarida o'rnatilgan tartib buzilsa;

-Davlat bayrog'i va gerbi tasviri tushirilgan belgilardan foydalanish qoidalari buzilsa;

-Davlat bayrog'ining qonunda belgilangan ko'tarib va tushirib qo'yish vaqti, o'rni, tartibi, ko'tarilish balandligi buzilsa;

-Davlat bayrog'ini tayyorlash, saqlash va yo'q qilish tartibi buzilsa;

-Davlat madhiyasini ijro etish vaqti, matni, musiqaviy tahriri, ijro

etish va eshitish tartibi buzilsa va qonun bilan belgilangan boshqa holatlarda.

Mazkur qonunning qabul qilinishi aholi orasida o'z davlat ramzlariga bo'lgan hurmat-e'tiborning ortishiga, yosh avlod qalbida milliy faxr va iftixor tuyg'ularining kuchayishi bilan birga mustaqilligimiz va Vatanimiz timsollariga bo'lgan e'tiborning yanada oshishiga xizmat qiladi.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT KONSTITUTSIYASI

«Konstitutsiya» so'zi lotincha bo'lib, «o'rnatish», «belgilash» ma'nolarini bildiradi. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Shu sababli barcha qonunlar Konstitutsiyadan kelib chiqadi va unga zid kelmasligi lozim. Asosiy Qonunimiz 1992 yil 8 dekabrda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan. Konstitutsiya olti bo'lim, yigirma olti bob, bir yuz yigirma sakkiz moddadan iborat.

### MUQADDIMA

O'zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida, o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi.

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDAN:

**1-modda.** O'zbekiston — suveren demokratik respublika. Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

**2-modda.** Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.



**4-modda.** O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

**5-modda.** O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari – bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

**15-modda.** O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

**18-modda.** O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

*Konstitutsiyaning 24-, 25-, 26-, 27-, 28-, 29-, 30-, 31-moddalarida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari belgilab berilgan.*

**31-modda.** Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

**40-modda.** Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

**41-modda.** Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

*Konstitutsiyaning 47-, 48-, 49-, 50-, 51-moddalarida fuqarolarning burchlari belgilab qo'yilgan.*

## TARAQQIYOTNING O'ZBEK MODELI

O'zbekiston – taraqqiyotning o'ziga xos mustaqil yo'lini tanlab olgan davlat. Bu yo'l jahonda «O'zbek modeli» deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Istiqlolning dastlabki yillarida Prezident Islom Karimov rahbarligida islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshdan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi mashhur besh tamoyili vujudga keldi:

**Birinchi tamoyil: Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi.** Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror

mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan xoli bo'lishi lozim.

**Ikkinchi tamoyil: Davlat – bosh islohotchi.** U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi, uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim.

**Uchinchi tamoyil: Qonun ustuvorligini ta'minlash.** Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga rioya etishi lozim.

**To'rtinchi tamoyil: Kuchli ijtimoiy siyosat.** Bozor munosa-batlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim.

**Beshinchi tamoyil: Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.** Bozor munosabatlari kishilarning yangicha dunyoqarashi, psixologiyasi, ko'nikma va hulq-atvori, ta'bir joiz bo'lsa, hayot tarzi hamdir. Ularning qaror topishi va rivojlanishi uchun esa ma'lum vaqt, sabr-toqat, izchillik darkor. Shu sababdan bozor munosabatlariga o'tishda "Yangisini qurmay, eskisini buzmaslik" prinsipi asosiy g'oya qilib olindi.

## «MILLIY G'OYA TARG'IBOTI VA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH TO'G'RISIDA»GI 451-SONLI QARORGA OID SAVOL-JAVOBLAR

Savol: «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Prezidentimiz qarori qachon qabul qilingan?

Javob: 2006 yil 25 avgustda.

Savol: Qaror qabul qilinishining asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?

Javob: Hozirgi murakkab davrda xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotganligi, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish zarurati paydo bo'lganligi uchun.

Savol: Qarorning asosiy maqsadi nima?

Javob: Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini, ularning hayotiyligi va ta'sirchanligini yanada oshirish.

Savol: Qarorda qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun qanday tashkiliy vazifalar belgilandi?

Javob: Respublika ma'naviyat va ma'rifat Kengashiga raislik qilish Bosh vazirga, joylarda esa hududiy kengashlarga raislik qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar, shahar va tuman hokimlariga yuklatildi.



Savol: Ilgarigi milliy mafkura ilmiy-targ'ibot markazi o'rniga qaysi markaz yangidan tashkil etildi?

Javob: Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Savol: Yangi tashkil etilgan Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazining vazifalari nimalardan iborat?

Javob:

- Hozirgi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etish;
- Hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish;
- Fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarashni mustahkamlash, ularni sobitqadam va fidoiy vatanparvarlar etib tarbiyalash.

Savol: Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Javob:

- Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik va insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalashga jiddiy e'tibor berish;
- Davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlarini atroflicha sharhlash va tushuntirish;
- Yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va informatsion xurujlar va ularning maqsadlarini fosh qilish;
- Odamlarni ogohlik va hushyorlikka da'vat etish;
- Milliy g'urur va komil inson to'g'risidagi tushunchalarni ta'sirchan uslublar orqali singdirish.

## ASOSIY TUSHUNCHALAR

### *MILLIY G'OYA NIMA?*

G'oya – inson tafakkuri mahsuli bo'lib, ijtimoiy maqsadni aks ettiradi. Milliy g'oya – millat tafakkuri mahsuli bo'lib, inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir.

Masalan: «Biz ozod va obod Vatan qurmoqchimiz», degan fikr umummilliy g'oyadir. Chunki bu fikr mamlakatimiz hududida yashayotgan barcha insonlarni Vatanimizning gullab-yashnashi uchun kurashish va mehnat qilishdek ezgu maqsadlar sari yetaklaydi.

*BUNYODKOR G'OYA NIMA?*

Bunyodkor g'oya deb insonni ulug'laydigan, uni ruhiga qanot bag'ishlab, xalqi, Vatani uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik kabi ezgu maqsadlarga yetaklaydigan g'oyaga aytiladi.

Masalan, kuchli, markazlashgan davlat barpo etish g'oyasi buyuk bobomiz sohibqiron Amir Temurni ulkan bunyodkorlik ishlariga undagan.

*BUZG'UNCHI, VAYRONKOR G'OYA NIMA?*

Vayronkor g'oya deb turli ta'sirchan vositalardan foydalanib, odamlarni soxta va puch maqsadlarga ergashtiruvchi, insoniyat uchun kulfat keltiradigan g'oyaga aytiladi. Bunday g'oyalar sirasiga diniy aqidaparastlik, terrorizmni kiritish mumkin.

*MAFKURA TUSHUNCHASI*

«Mafkura» arabcha so'z bo'lib, «nuqtai nazar, e'tiqod, dunyoqarash» ma'nolarini bildirib, muayyan ijtimoiy guruh, millat, xalqning maqsadlarini, orzu-umidlarini ifoda qilib, ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir.

Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrardir. Mafkura e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mafkuraning asosiy maqsadi:

- muayyan g'oyaga ishontirish;
- uyushtirish;
- safarbar etish;
- ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish;
- g'oyaviy tarbiyalash;
- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- harakat dasturi bo'lishi.



*MA'NAVIYAT TUSHUNCHASI*

*Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon- e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.*

**ISLOM KARIMOV.**

«Ma'naviyat» – arabcha so'z bo'lib, «Ma'nolar yig'indisi» degan ma'noni bildiradi.

Ma'naviyat – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari yig'indisidir.

Har bir xalq, millat uzoq yillar davomida o'zining ma'naviy merosini yaratadi. Bu borada o'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy ma'naviyatiga egaki, uni o'rganish va ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash biz uchun ma'suliyatli vazifadir.

*MA'RIFAT TUSHUNCHASI*

*Ilm-ma'rifatga qiziqishi sust millatning kelajagi ham bo'lmaydi.*

**ISLOM KARIMOV.**

Ma'rifat – arabcha so'z bo'lib «bilmoq» ma'nosini anglatadi. Ma'rifat ilg'or ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy va diniy g'oyalar asosida kishilar ongi, bilimi va madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyatdir.

*VATAN TUSHUNCHASI*

*Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi.*

**ISLOM KARIMOV.**

«Vatan» arabcha so'z bo'lib, «Ona yurt, tug'ilgan joy» ma'nosini anglatadi. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan tuproq.

Vatan ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz va o'zimiz tug'ilib o'sgan, kamol topgan muqaddas yurt, joy. «Vatan ostonadan boshlanadi», deydi xalqimiz. Muborak hadisi sharifda ham «Vatanni sevmoq iymondandir» deyilgan. Yurtboshimiz I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda, «Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdir».

## OGOH BO'LING!

### G'OYAVIY BO'SHLIQ

G'oyaviy bo'shliq – avvalgi tizimdan yangi tizimga o'tish jarayonida oldingi hukmronlik qilgan mafkura o'z mavqeini yo'qotgach, taraqqiyot talabiga mos bo'lmagan yoki uning o'rnini bosa oladigan ilg'or g'oyaviy tizimning yo'qligi tufayli shakllangan holatdir. G'oyaviy bo'shliq mamlakat xafsizligi va fuqarolarning osoyishtaligiga jiddiy xavf soladi.

### AQIDAPARASTLIK

Aqidaparastlik – ma'lum bir vaqt, sharoitda shakllangan qoida va tartiblarni boshqa vaqt, sharoit hamda vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llashga bo'lgan urinishdir.

Bu atama faqat salbiy ma'noda qo'llanib, muayyan shaxs yoki oqim tomonidan bayon etilgan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy ravishda kengaytirishga bo'lgan urinish ma'nosida ham ishlatiladi.

### EKSTREMIZM

(Lotincha – «ekstremus» - o'ta) – ijtimoiy-siyosiy muammolar, ziddiyatlarni hal etishda keskin chora-tadbir, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotdir. Ekstremistik qarashlar chuqur ildizga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, din, millat, hudud tanlamagan.

### TERRORIZM

Bugungi kunda insoniyatga katta tahdid solayotgan eng yovuz g'oyalardan biri terrorizmdir (lotincha «terror» – qo'rquv, daxshat). Terrorizm – yovuz maqsad yo'lida kuch ishlatib, odamlarni yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usulidir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jamiyatda doimiy qo'rquv, fitna, odamlar, ayniqsa bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlatishlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

### «YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH»

Prezidentimiz I. A. Karimovning ushbu kitobida bashariyat uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan



ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson, jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bu murakkab va sirqirra tushunchaning nazariy hamda amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikrlar, xulosalar orqali tahlil etiladi.

Ushbu asar 2008 yilda «Ma'naviyat» nashriyoti tomonidan chop etilgan.

Kitob 4 ta bob hamda muqaddima va xotimadan iborat.

Birinchi bob «Ma'naviyat – insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbaidir», deb nomlanadi. Ushbu bobda:

*Ma'naviyatni anglash;*

*Ma'naviyatni shakllantirishdagi asosiy mezonlar;*

*Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi* haqida tushunchalar berilgan.

Ikkinchi bob «Mustaqillik – ma'naviy tiklanish va yuksalish» deb nomlanadi. Ushbu bobda:

*Milliy g'oya va ma'naviy hayot;*

*Ma'naviyat va jamiyatning yangilanishi;*

*Islohotlar va ularning ma'naviy mezoni* to'g'risida tushunchalar berilgan.

Uchinchi bob «Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid», deb nomlangan. Ushbu bobda:

*Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar;*

*Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya* haqida tushunchalar berilgan.

To'rtinchi bob «Vatanimiz taraqqiyotining mustahqam poydevori» deb nomlangan. Ushbu bobdan *«Inson qalbiga yo'l»* va *«Eng buyuk jasorat»* nomli qismlar o'rin olgan.

G'oyat muhim va hal qiluvchi masalalar o'rtaga qo'yilgan mazkur asarda bugungi murakkab davrda ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oyalar hamda mafkuralar ta'siridan saqlash, himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

### «YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH» KITOBIDAN OLINGAN IQTIBOSLAR

Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umum-

basharіy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o'zining ko'rki-u tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morlik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

***

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlaridan, qanchadan-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o'zida katta ma'no mujassam. Bunday o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi.

Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g'oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo'lamiz.

Misol uchun, «Avesto»ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya'ni, ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e'tiborlidir.

***

Xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostoni millatimizning «o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga



o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan.

Xalqimizning yengilmas bahodiri - Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz - bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz.

***

Buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-u fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi.

Shaxsan men «Temur tuzuklari»ni har gal o'qir ekanman, xuddiki o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. O'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma'naviyati uchun bugun ham oziq bo'ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko'p bor ishonch hosil qilganman.

***

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo''tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz.

***

Keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig'ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e'lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko'rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr

poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga o'rnatilgan muhtasham haykallarni eslash joiz.

***

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi.

Ana shunday ulug' ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy merosi va ibratli faoliyati keyinchalik diyorimizda Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullaev va Sa'di Sirojiddinov, Obid Sodiqov va Sobir Yunusov, Yahyo G'ulomov va Bo'riboy Ahmedov, Oybek va G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim Sarimsoqova va Halima Nosirova, Olim Xo'jaev, Razzoq Hamroev va boshqa ko'plab nomlari dunyoga tanilgan mashhur ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblarining etishib chiqishiga mustahkam zamin bo'lib xizmat qildi.

***

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

***

Istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shunday orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.



## «O'ZBEKISTON MUSTAQILLIKKA ERISHISH OSTONASIDA»

2011 yilda «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» nomli kitobi chop etildi. Unda davlatimiz rahbarining mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi arafasida va undan keyingi dastlabki oylarda olib borgan jo'shqin va serqirra faoliyati aks ettiriladi. Bu kitobdan Prezidentning ayni shu murakkab tarixiy davrda so'zlagan ma'ruza va nutqlari, suhbat, maqola, va intervyulari o'rin olgan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, bu chiqishlar kitob holida ilk marta chop etildi. Ularning ijtimoiy mohiyati, ilmiy-nazariy qiymati va ahamiyati naqadar beqiyos ekani vaqt o'tib ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu to'plamdan joy olgan har bir chiqishni muhim siyosiy voqea, yurtimizni milliy istiqlolga olib kelgan mashaqqatli va sharafli kurash tarixining o'chmas sahifasi deyish mumkin.

Kitob chop etilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad sovet davlati hali o'zining kuchini yo'qotmagan, uning repressiv siyosati davom etayotgan, "paxta ishi" degan tuhmat bilan qancha-qancha odamlar nohaq qamalgan, tazyiq va ta'qiblarga uchragan, xalq o'rtasida tushkunlik, ertangi kunga ishonchsizlik kayfiyati, vahima keng tarqal-gan bir paytda O'zbekiston rahbari sifatida ish boshlagan Islom Karimovning mustaqillikka erishish masalasini kun tartibiga qat'iy qilib qo'yganini aniq tarixiy hujjatlar orqali ko'rsatish, bu yo'lda qanday ulkan ishlar amalga oshirilgani haqida o'quvchilarga ma'lumot yetkazishdan iborat.

## YURTBOSHIMIZNING SHIOR VA CHAQIRIQLARI

* Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.

* Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.

* O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat.

* Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir.

* Biz ozod O'zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari – Davlat gerbi, Davlat bayrog'i, Davlat madhiyasi azizdir.

* Yuksak ma'naviyati bo'lmagan xalqning kelajagi ham yo'qdir.

* Demokratik jamiyat – bu, eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir.

* Milliy mafkura vositasida el-u yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi.

* Kuch – bilim va tafakkurda.

* Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot - jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat-ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir.
* Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni topib, ularni Vatanga fidoiy insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir.
* Ma'rifat – xalqimiz, millatimiz qonidadir.
* Yoshlarga milliy vatanparvarlik ruhida ta'lim-tarbiya berish bugungi kunning jiddiy vazifalaridan hisoblanadi.
* Sog'lom deganda biz faqatgina jisman baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodni ham ko'zda tutganmiz. Chunki, har taraflama sog'lom avlodga ega bo'lgan xalqni hech qachon yengib bo'lmaydi.
* Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur.
* Vatan ozodligi va farovon hayot – har bir insonning oliy maqsadi.
* O'z kuchi va kelajagiga ishongan xalqning bag'ri keng bo'ladi.
* Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim.
* Milliy mafkura – millatni birlashtiruvchi bayroqdir.
* Ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir.
* G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashmoq kerak.

## MAMLAKATIMIZDA DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI YANADA CHUQURLASHTIRISH VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

1. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish.
2. Sud-huquq tizimini isloh qilish.
3. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash.
4. O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish.
5. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish.
6. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.



## TA'LIM TURLARI
**(1997 yil 29 avgust)**

1. *Maktabgacha ta'lim.* 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.
2. *Umumiy o'rta ta'lim.* Boshlang'ich ta'lim (1-4 sinflar); umumiy o'rta ta'lim (1-9 sinflar).
3. *O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi.* Akademik litseylar; Kasb-hunar kollejlari.
4. *Oliy ta'lim.*
5. Universitetlar; Akademiyalar; Institutlar; (Bakalavriat, magistratura).
5. *Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.*

Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, mustaqil izlanuvchilik.

6. *Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.*
7. *Maktabdan tashqari ta'lim.*

Bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar.

## KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURINI RO'YOBGA CHIQARISH BOSQICHLARI

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqariladi.

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) - mavjud kadrlar tayyorlash tizimi-ning ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) - Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) - to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

## KADRLAR TAYYORLASHNING MILLIY MODELI

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

shaxs — kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat — ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

- ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

## O'ZBEKISTONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR VA HARAKATLAR

Siyosiy partiyalar – umumiy g'oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda uyushtiruvchi turg'un tashkilot, fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog'lovchi eng muhim vositalardan biri.

Hozirgi kunda O'zbekistonda to'rtta siyosiy partiya va ikkita harakat mavjud bo'lib, bular:

1. **O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi.** O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga (qisqacha nomi – O'zbekiston XDP) 1991 yilning 1 noyabrida partiyaning ta'sis qurultoyida asos solingan.

O'zbekiston XDPning o'z ommaviy axborot vositalari mavjud. Ular: partiyaning markaziy nashrlari – "O'zbekiston ovozi" gazetasi (o'zbek tilida) va "Golos O'zbekistana" haftanomasi (rus tilida).

2. **O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi.** O'zbekiston "Adolat" SDP 1995 yil 18 fevralda partiyaning Birinchi ta'sis Qurultoyida tužilgan. Partiyaning rasmiy matbuot nashri "Adolat ijtimoiy-siyosiy gazetasi bo'lib, u haftada bir marta chiqadi.



3. **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi.** 2003 yil 15 noyabrda "Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi"ning Ta'sis qurultoyi bo'lib o'tgan. 2003 yil 3 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan. Partiyaning markaziy nashri - "XXI asr" gazetasi

4. **O'zbekiston "Milliy Tiklanish" demokratik partiyasi.** 2008-yil 20-iyun kuni O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va Fidokorlar milliy demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo'lib o'tib, ushbu ikki partiya negizida yangi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (O'zMTDP) tashkil etildi. 2008-yil 11-avgust kuni O'zMTDP O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tdi Dastlab partiya 1995-yilda tashkil topgan edi.

## "KAMOLOT" YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI

O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati 2001-yilning 25-aprelida O'zbekiston Milliy universitetining Madaniyat saroyida Respublika yoshlari vakillarining birinchi qurultoyida tuzilgan.

"Kamolot" YOIH o'z dastur va nizomiga ega. Harakatning maqsadi: yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O'zbekiston jahonning rivojlangan mamla-katlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash, yigit-qizlarning ma'naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishdan iborat. Harakatga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston fuqarolari a'zo bo'lishi mumkin. Harakatning oliy boshqaruv organi 5 yilda bir marta chaqiriladigan Qurultoy, boshqaruv organi – yig'ilishi 6 oyda kamida bir marta chaqiriladigan Markaziy Kengash, ijroiy organi – 2 oyda bir marta chaqiriladigan Markaziy Kengash Ijroiya qo'mitasi hisoblanadi. Harakat tarkibida uning faolligi asosida 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchi-larni birlashtiradigan "Kamalak" bolalar tashkiloti tuzilgan.

Harakat yoshlar muamolari instituti "Yangi asr avlodi" nashriyot-matbaa markazini ta'sis etgan.

Matbuot nashrlari: "Turkiston", "Molodej O'zbekistana", "Yosh kuch," "Sirli olam," "Sirdaryo," "G'uncha," "Qalb qo'ri".

## O'ZBEKISTON EKOLOGIK HARAKATI

O'zbekiston ekologik harakati O'zbekiston fuqarolarining bugungi va kelajak avlodining qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish, sog'liqni saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish va ularga so'zsiz rioya etilishiga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda bevosita faol ishtirok etishga hamda bu borada jamiyatning barcha sa'y-harakatlarini safarbar etishga intiluvchi mamlakat fuqarolari va tashkilotlarni ixtiyoriylik asosida birlashtiruvchi ommaviy jamoat harakati bo'lib, 2008 yil 2 avgustda mamlakatimiz ekolog olimlari, shu sohada ish olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va faol jamoatchilikning tashabbusi bilan tashkil topgan hamda 2008-yil 20-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining o'n besh nafar deputati mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishidan kelib chiqqan holda Ekoharakatdan saylanishi qonunda belgilab qo'yilgan. Harakatning markaziy nashri "Ekohayot" gazetasidir.

## MILLAT

Millat (arabcha - xalq) - kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birlik.

Yer yuzida uch mingga yaqin millat mavjud.

Millatlar son jihatdan 5 ta guruhga bo'linadi:

A) *Buyuk* millatlar: xitoylar - 1 mlrd 340 mln. kishi,

hindlar, amerikaliklar, ruslar, yaponlar – har biri 100 mln. dan ortiq songa ega;

B) *Katta* millatlar: (50mln.dan - 100 mln.gacha) - inglizlar, fransuzlar, ispanlar, olmonlar, turklar va boshqalar;

V) *Yirik* millatlar: (har biri 10 mln.dan - 50 mln.gacha) - o'zbeklar, portugallar, polyaklar va boshqalar.

G) *O'rta* sonli millatlar: (har biri bir milliondan o'n milliongacha);

D) *Kichik* millatlar: (har biri bir necha o'n mingdan bir milliongacha)



## O'ZBEKISTONDA DINIY MUNOSABATLAR

O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» gi Qonuni 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan.

1998-yil 1-mayda esa ushbu Qonunning yangi tahriri qabul qilingan. Ushbu Qonun 23 ta moddadan iborat. Qonunning 3-moddasi «Vijdon erkinligi huquqi» deb nomlangan. Unda aytiladiki:

«Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi».

Bugungi kunda O'zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan, Sobiq Sho'ro davrida respublikamizda boryo'g'i 87 ta masjid va 2 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozir O'zbekiston musul-monlari idorasi boshqaruvi ostida rasmiy ro'yxatdan o'tgan va barcha qulayliklar yaratilgan 2000 dan ortiq masjid, 10 ta madrasa va Toshkent Islom universiteti faoliyat ko'rsatib turibdi,

Hozirda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillari ham o'z dinlariga emin-erkin ibodat qilmoqdalar. Bugun respublikamizda 17 turdagi 180 dan ziyod noislomiy diniy tashkilotlar rasman faoliyat ko'rsatmokda.

1999-yil 7-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov-ning farmoniga asosan Toshkent islom universiteti tashkil etildi. Har yili mazkur oliygoh islom tarixi va falsafasi, diniy qonunchilik, iqtisod va tabiiy fanlar fakultetlariga 100 dan ortiq talabalarni qabul qiladi. Universitet qoshida Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi, manbalar xazinasi hamda akademik litsey faoliyat ko'rsatmoqda.

Islom dini jahon dinlari ichida eng yoshi bo'lib, e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan xristianlikdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Islom dini VII asrda Arabiston yarimorolida, hozirgi Saudiya Arabistoni hududida paydo bo'lgan. «Islom» so'zi "itoat, ixlos va omonlik" ma'nolarini anglatadi. Islom ta'limoti uning muqaddas kitobi «Quroni Karim»da bayon etilgan. Islom dini quyidagi besh ustun asosida qurilgan:

Iymon ( kalima keltirish), namoz, ro'za, zakot, haj.

Islom dinida ikki asosiy yo'nalish: sunniylik va shialik mazhablari mavjud. «Mazhab» arabcha so'z bo'lib «oqim», «yo'l», «ta'limot» ma'nolarini anglatadi.

Bugungi kunda Islom dini 173dan ortiq mamlakatda tarqalgan bo'lib, unga 1,5 milliarddan ortiq kishi e'tiqod qiladi.

Yurtimizdan yetishib chiqqan ulug' allomalardan Imom al-Buxoriyning «Al-Jome' as-Sahih», Az-Zamahshariyning arab tili grammatikasini to'liq o'z ichiga olgan «Al-Mufassal», Burhoniddin Marg'inoniyning islom huquqshunosligi to'g'risidagi «Kitob al-Hidoya» asarlari bugungi kunda ham islom olamida ilmiy va ma'naviy ahamiyati jihatidan mashhurdir.

## QUR'ON DEGANDA NIMANI TUSHUNAMIZ?

Qur'on - musulmonlarning muqaddas kitobi. Unda islom aqidalari, e'tiqod talablari, cheklash va taqiqlash o'z ifodasini topgan. Islomda «Qur'oni Karim» Alloh tomonidan payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga Ramazon oyining 27-kunida vahiy qilingan (uqtirilgan ) deyiladi.

Qur'on 114 ta sura, 6236 oyat, 30 pora va 77934 ta so'zdan iboratdir.

Qur'onning asosiy g'oyasi tavhid, ya'ni yakka Xudo – Alloh to'g'risi-dagi ta'limotdir. Shu bilan bog'liq ravishda unda payg'ambarlar haqida, taqdir to'g'risida aqidalar bayon etilgan.

Qur'on o'zbek tilida ilk bor 1991 yilda, Alouddin Mansur tarjimasida, 2001-yilda esa Abdulaziz Mansur tarjimasida nashr etildi. 2011-yili shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan «Qur'oni Karim» ning ma'nolar tarjimasi o'zbek tilida chop etildi. Musulmon olamida Qur'ondan so'ng ahamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda Imom al-Buxoriyning «Al-Jome' as-Sahih» kitobi turadi.

## ISLOM VA DINIY EKSTREMIZM: G'OYALAR KURASHI

O'tgan asrning boshlaridan to mustaqillikka erishgunimizga qadar bo'lgan davr mobaynida ma'naviy ildizlarimizdan ayirish, dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishga urinishlar bo'ldi. Natijada, ma'naviyat va ma'rifat o'rnini ma'lum darajada jaholat egalladi,



Yurtdoshlarimiz fikh, tafsir, hadis, tasavvuf ilmlari haqida umumiy tushunchaga ham ega bo'lmay qoldilar. Hatto «Islom dini va musulmonchilik nima?» degan savollarga jo'yali javob bera oladiganlarning soni ham sanoqli bo'lib qoldi. Movaraunnahrning azaldan dinu-diyonat o'chog'i, fuzalo-yu ulamolar yurti ekanligini unutib qo'ydik.

Ana shunday sharoitda mintaqamizda, xususan, O'zbekistonda ba'zi kuchlar din niqobi ostida g'arazli maqsadlar bilan siyosiy hokimiyatni egallashga intildilar. «Alloh», «islom» kabi so'zlar bilan nomlangan, eshitilishi jarangdor partiya va tashkilotlar: «Islom uyg'onish partiyasi», «Hizbulloh», «Hizb-ut-tahrir al-islomiy» va boshqalarni tuzib, mavjud konstitu-tsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab, yaxlit jo'g'rofiy hududda islom davlati qurish, xalifalikni qayta o'rnatishga harakat kildilar. Xalifalik – islomiy davlat tuzumi bo'lib, VII asrda Arabiston yarimorolida vujudga kelgan. Arabcha «Xalifa» so'zi o'rinbosar degan ma'noni anglatgan. Xalifa davlatning yagona diniy va siyosiy rahbari hisoblangan.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning «Mendan keyin xalifalik 30 yil davom etadi, undan so'ng podshohliklar paydo bo'ladi» degan hadislari bor, Haqiqatdan ham, payg'ambarimiz (s.a.v.) bashoratlarini tarix tasdiqladi. Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Hattob, Usmon bin Affon, Ali bin Abu Tolib 30 yil (632- 661 yillar) davomida islom g'oyalarini asl holda saqlanib qolishiga bor kuchlarini baxshida etdilar. Hozirgi asrimizda xalifalikni qayta tiklash g'oyasi islom dini ta'limotiga ziddir.

«Vahhobiylar» hokimiyatni qo'lga olishda ochiq kurash, ekstremizm, terror yo'lini tutsalar, «Hizbchilar» g'oyaviy, mafkuraviy kurash uslubini qo'llaydilar. Ular 5-6 kishidan iborat halqalarga bo'linib, mafkuraviy targ'ibot ishlarini olib boradilar. Yoshlar tarbiyasidagi ma'naviy bo'shliqdan foydalanib, ularning ongini zaharlashga urinadilar. Xalifalik asosidagi islom davlatini tiklashga qadar va toki ana shu maqsadga erishmaguncha boshqa masalalarga, hatto ibodatlarga ham ikkinchi darajali vazifa deb qaraydilar.

«Hizb ut-tahrir al-Islomiya» diniy tashkiloti ham vahhobiylar kabi davlat siyosiy boshqaruviga aralashishga, hokimiyatni to'ntarish yo'li bilan qo'lga kiritib, islom davlatini tiklashga intiladi.

«Akromiylar» oqimi vakillari Allohgagina e'tiqod qiladilar va payg'ambarlarga iymon keltirmaydilar. «Hozirgi kunda go'yo kufr jamiyatida yashamoqdamiz» deb da'vo qiladilar.

«Al-Qoida», «O'zbekiston islom harakati», «Islom jihodi ittifoqi» kabilar dunyo hamjamiyati tomonidan terroristik tashkilotlar sifatida tan olingan.

Yuqorida ta'riflari berilgan diniy oqimlar va tashkilotlarning nomlari turlicha bo'lsada, aslida ularning maqsadlari va g'oyalari bitta: dinni niqob qilib, hokimiyatga intilish, tinch-osoyishta xalq orasida nifoq va ixtilof chiqarish. Eng achinarlisi shundaki, bu oqimlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, ulardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va kafolatlari" kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida jumladan shunday deyiladi: «Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy meroslardan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz».

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JORIY ETILGAN FAXRIY UNVONLAR

"O'zbekiston Qahramoni"
"O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi"
"O'zbekiston Respublikasi fan arbobi"
"O'zbekiston Respublikasi xalq artisti"
"O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi"
"O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi"
"O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri"
"O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi"
"O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi"
"O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi"
"O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi"



"O'zbekiston Respublikasida kommunal, maishiy va savdo sohasida xizmat ko'rsatgan xodim"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan irrigator"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi va ratsionalizator"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan iqtisodchi"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan me'mor"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan transport xodimi"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan chorvador"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik xodimi"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan quruvchi"
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist"
"O'zbekiston iftixori".

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'SIS ETILGAN ORDEN, MEDAL VA NISHONLAR

1."Sog'lom avlod uchun" ordeni (I va II darajali) 7-may 1993-yil.
2."Mustaqillik" ordeni. 5-may 1994-yil.
3."Do'stlik" ordeni. 5-may 1994-yil.
4."Oltin yulduz" medali. 5-may 1994-yil
5."Jasorat" medali. 5-may 1994-yil
6."Shuhrat" medali. 5-may 1994-yil
7."Mehnat shuhrati" ordeni. 30-avgust 1995-yil.
8."Shon-sharaf" ordeni. (I va II darajali). 30-avgust 1995-yil.
9."Amir Temur" ordeni. 26-aprel 1996-yil.
10."Buyuk xizmatlari uchun" ordeni. 29-avgust 1996-yil.
11."O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni. 22-iyul 1997-yil
12."El-yurt hurmati" ordeni. 28-avgust 1998-yil.
13."Jaloliddin Manguberdi" ordeni. 30-avgust 2000-yil.
14."O'zbekiston mustaqilligining 10 yilligi" esdalik nishoni. 18-iyul

2001-yil.

15. "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni. 29-avgust 2003-yil.

16. "O'zbekiston mustaqilligining 15 yilligi" esdalik nishoni. iyul 2006-yil

17. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlariga 15 yil" esdalik nishoni. 26-dekabr 2006-yil.

18. "Sodiq xizmatlari uchun" medali. 6-iyul 2007-yil

19. "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil" esdalik nishoni. 17-may 2011-yil.

20. "O'zbekiston Respublikasi Quroli kuchlariga 20 yil" esdalik nishoni. 31-oktyabr 2011-yil.

21. "Mardlik" ordeni. 11-sentyabr 2012-yil.

## YIL YO'NALISHLARI

1997-yil – «Inson manfaatlari yili».
1998-yil – «Oila yili».
1999-yil – «Ayollar yili».
2000-yil – « Sog'lom avlod yili».
2001-yil – « Onalar va bolalar yili»
2002-yil – « Qariyalarni qadrlash yili».
2003-yil – «Obod mahalla yili».
2004-yil – «Mehr-muruvvat yili».
2005-yil – «Sihat-salomatlik yili».
2006-yil – «Homiylar va shifokorlar yili».
2007-yil – «Ijtimoiy himoya yili».
2008-yil – «Yoshlar yili».
2009-yil – « Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili».
2010-yil – «Barkamol avlod yili».
2011-yil – «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili».
2012-yil – «Mustahkam oila yili».
2013-yil – «Obod turmush yili»
2014-yil – «Sog'lom bola yili»

## BAYRAMLAR, MUHIM SANALAR

1992-yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasida «Bayram kunlari haqida»gi Qonun qabul qilingan.

1-YANVAR – Yangi yil bayrami.
14-YANVAR – Vatan himoyachilari kuni.



9-FEVRAL – Alisher Navoiy tavallud topgan kun.
14-FEVRAL – Zahiriddin Muhammad Bobur tug'ilgan kun.
8-MART – Xalqaro xotin-qizlar kuni.
21-MART – Navro'z umumxalq bayrami.
27-MART – Xalqaro teatr kuni.
7-APREL – Jahon salomatlik kuni.
9-APREL – Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan kun.
9-MAY – Xotira va qadrlash kuni.
15-MAY – Xalqaro oila kuni.
18-MAY – Xalqaro muzeylar kuni.
1-IYUN – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni.
5-IYUN – Xalqaro ekologiya kuni.
2-IYUL – O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi qabul qilingan kun.
1-SENTYABR –Mustaqillik kuni.
4-SENTYABR – Abu Rayhon Beruniy tug'ilgan kun.
8-SENTYABR – Xalqaro savodxonlik kuni.
1-OKTYABR – O'qituvchi va murabbiylar kuni.
21-OKTYABR – O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun.
10-NOYABR – Xalqaro yoshlar kuni.
17-NOYABR – Xalqaro talabalar kuni.
18-NOYABR – O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun.
3-DEKABR – Xalqaro nogironlar kuni.
8-DEKABR – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni.
10-DEKABR – O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun.

## YODDA SAQLANG!

1991-yil 20-noyabr – «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

1997-yil 29-avgust – «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.

1998-yil 24-fevral – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida»gi 77-sonli qarori qabul qilindi.

1998-yil 26-mart – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 130-sonli «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy

aqadaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

1998-yil 13-may – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 204-sonli «O'zbekiston Respublikasida o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

1999-yil 27-may – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 271-sonli «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori qilindi.

1999-yil 10-iyun – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-2326-son farmoni qabul qilindi.

2000-yil 21-sentyabr – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida"gi 360-sonli qarori qabul qilindi.

2006-yil 3-aprel – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholi o'rtasida olib borilayotgan ma'naviy-marifiy targ'bot-tashviqot ishlarining ta'sirchanligi va samarasini oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi PQ-317-son qarori qabul qilindi.

2006-yil 20-iyun – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida»gi PQ-381-son qarori qabul qilindi.

2006-yil 25-avgust – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 451-sonli «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

2011-yil 23-fevral – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatlarini yanada sifatli rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1487-sonli qarori qabul qilindi.

2011-yil 13-aprel – O'zbekiston Respublikasiniing «Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

2012-yil 10-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori qabul qilindi.

2014-yil 6-fevral – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2124-sonli qarori qabul qilindi.



## TARIXIY SHAXSLAR

### Ahmad al-Farg'oniy (taxminan 797-865 yillar)

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda yashagan astronom, matematik, geograf olimdir.

Olimning to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniydir. Manbalarda uning farg'onalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma'lumotlar saqlanmagan.

Al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» («Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum») XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi «Alfraganus» shaklida g'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi.

Bundan tashqari, hozirgi kunda Farg'oniyning yana yettita asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador. Ular quyidagilar:

1. «Astromiya asoslari haqida kitob»
2. «Al-Farg'oniy jadvallari»
3. «Oyning yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola»
4. «Etti iqlimni hisoblash haqida»
5. «Quyosh soatini yashashi haqida kitob»
6. «Asturlob yasash haqida kitob»
7. «Asturlob bilan amal qilish haqida kitob»

Al-Farg'oniy ekvator va ekliptika tekisliklaridagi doimiy burchakni 23 daraja 35 minut deb aniq o'lchadi, sferalar radiusini birinchi marta belgilab berdi, Oy va Quyosh tutilishlarini tadqiq etdi. Yer yoyining qaysi uzunligi 1 gradusga to'g'ri kelishini o'lchab, bu miqdorni aniqladi, uni 360 ga ko'paytirib, 40800km.ni hosil qilishni qayd etdi. Yer shari meridianining uzunligini aytib berdi. Nil daryosi gidrometeorologik tabiatini aniqlaydigan asbob yasadi. Inson yashaydigan maydonni yetti iqlimga bo'ldi, vaqt o'lchamini, osmonning kelajak manzarasini ifodalaydigan asturlob nazariyasi va boshqalarni yaratdi.

### Imom al- Buxoriy
### (810-870)

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 810 yil 21 iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. 870 yil 31 avgustda Samarqand shahri yaqinidagi Xartang qishlog'ida vafot etgan.

Al-Buxoriy yoshligidanoq arab tili va hadis kitoblarini sevib o'rgangan, ularni yod olgan. 16 yoshida Imom Buxoriy onasi va akasi Axmad bilan haj safariga otlanadi. U har qanday kitobni bir marta mutoala qilishda yod olish qobiliyatiga ega bo'lgan, yuz ming «sahih» va ikki yuz ming g'ayri sahih hadisni yoddan bilgan. Imom Buxoriy hadis ilmida musulmonlarning yetakchisi degan nomga sazovor bo'lgan.

*Asarlari:*

«Al-Jome' as-Sahih» (asar islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sifatida baholanadi). Bu asarning yozilganiga 1200 yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lib, uning 1325 yilda ko'chirilgan sakkiz jilddan iborat go'zal nusxasi hozirgi kunda Istambulda saqlanadi.

Uning yana quyidagi asarlari mavjud: «At-tarix al-Kabir», «Al-adab al-Mufrad», «At-tarixal-avsot», «Al-Jome' al-kabir», «Kitob al-ilal», «Barral-volidayn», «Kitob al-ashriba», «Kitob az-zuhfo», «Asomius-sahoba», «Kitob al-Kuna».

## At – Termiziy
**(824 – 892)**

At-Termiziyning to'liq ismi sharifi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhor Shaddod Sullami Bugiy Termiziy. U 824 yilda Termizda uncha badavlat bo'lmagan oilada tavallud topgan.

Musulmon olamida mashhur yirik muhaddislardan va Qur'oni Karim tafsirchilaridan biridir.

Bu zotni Abu Abdulloh al-Hakim at-Termiziy (X asrning birinchi choragida vafot etgan) va boshqa Termiziylar bilan chalkashtirmaslik lozim.

At-Termiziy yoshligidan mukammal oliy islom ta'limini olgan. Hadislarni to'plash maqsadida Xuroson, Iroq, Hijoz shaharlarida ziyoratda va sayohatda bo'lgan.

Payg'ambar hadislarini to'plash va o'rganishda o'ziga xos hadislar ishoblari ( nisbat berish zanurining bog'lanishi) va har bir hadis atrofida mazhablararo nuqtai nazar kurashiga e'tibor bergan, xolisona tahlil va talqin qilgan.

Uning asarlari: «Payg'ambar alayhissalomning shakl va sifatlari», «Hadislardagi illatlar», «Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola», «At-tarix», «Kitob uz-zuhd», «Jomi at-Termiziy» va boshqalar.



## Al-Moturidiy
**(870-944)**

Abu Mansur al-Moturidiy asli Samarqandning Moturid qishlog'ida (hozirgi Jomboy tumanida) tug'ilgan. Uning to'liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Maxmud-al Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir.

Al-Motorudiy ilohiyot ilmlarini to'la shakllantirib, takomilga yetkazdi, ularni qayta ishlab chiqdi va tizimga (sistemaga) soldi. Bundan tashqari u islom falsafasini ham ishlab chiqdi. U yaratgan ta'limot islom dinining buyuk aqidaviy oqimlaridan biri sifatida butun islom olamiga tanildi. Unga islom ulamolari nafaqat «shayx», balki «Rais ahli as-sunna val jamoa» deb ta'rif berganlar.

Al-Moturidiy islomning sunniylik yo'nalishidagi hanafiylik mazhabiga e'tiqod qilgan. Islom ilohiyotshunosligi (teologiya) bo'yicha o'ndan ortiq asarlar yozgan. Ulardan ikkitasi: «Kitob at-Tavhid» va «Ta'vilot ahli as-sunna» islom olamida tengi yuq asarlar hisoblanadi.

Sunniylikdagi to'rt: hanafiya, shofiya, molikiya, hanbaliya mazhablarining asosiy g'oyalari, qonun-qoidalari buyuk alloma al-Moturidiy al-Ashariy ta'limoti ustiga qurilgan. Yuqoridagi ikki asar turkiy elatlarga islomiy odob qoidalari, shariat qonunlari, ma'naviy-axloqiy, kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'ljallangan.

Abu Mansur al-Moturidiy Samarqandda vafot etgan bo'lib, u Chokardiza qabristoniga dafn etilgan.

## Abu Nasr Forobiy
**(873-950)**

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Sirdaryo bo'yidagi Forob qishlog'ida dunyoga kelgan. U faylasuf, qomusiy olim bo'lib, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Damashq shaharlarida o'z bilimini oshirgan. Olim 70dan ortiq tilni bilgan. Fan olamida uning 160 dan ortiq asari ma'lum.

Asarlari:«Fozil odamlar shahri», «Ixso al-ulum», «Hikmat asoslari», «Aristotel logikasiga talqinlar», «Katta musiqa kitobi», «Fuqarolik siyosati», «Mantiqqa kirish», «Vakuum haqida», «Metafizika tezislari» va boshqalar.

Abu Nasr Forobiy dunyoqarashining asosini panteistik g'oya tashkil etadi. Uning fikricha, mavjudot emanatsiya yordamida ibtidodan bosqichma-bosqich paydo bo'lgan. Forobiy o'zining ijtimoiy

qarashlarida ma'naviy hayotga oid ko'pgina qimmatli fikrlarni olg'a surgan. U insoniyat jamiyatini vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy sabablarini ko'rsatib bergan. Jamiyat axloqining vujudga kelishi, inson va jamiyatning o'zaro munosabatini tahlil qilgan. Shuningdek, u insoniylik, adolat, yetuk jamoa, komil inson muammolarini o'rtaga qo'ygan va ularni nazariy jihatdan asoslab bergan. Abu Nasr Forobiy Damashq shahrida vafot etgan.

### Burhoniddin Marg'inoniy
(1123-1197)

Buyuk olim Abu Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al- Farg'oniy ar- Rishtoniy al-Marg'inoniy 1123 yil 23 sentyabrda tug'ilgan.

Uning asarlari: «Shaxslar xaqida kitob», «Boshlovchilar uchun qo'llanma», «Mazhabning tarqalishi», «Haj marosimlari», «Farzlar kitobi», «Nozil bo'lgan narsalar to'plami» va boshqalar.

Allomaning ijodidagi har bir asar o'z o'rni va vazniga ega bo'lsada, muallifning nomini butun islom olamiga mashhur kilgan shoh asar - bu «Al-Hidoya»dir.

«Al-Hidoya» asari musulmon kishining shaxsiy va ijtimoiy hayotida uchraydigan barcha huquqiy holatlarini o'z ichiga olgan keng qamrovli asardir.

Burhoniddin al-Marg'inoniyning mazkur asari alloma yashagan zamondayoq nihoyatda yuksak baholangan. Ushbu asar islom huquqshunosligi sohasida o'rta asrlarda bitilgan eng nodir, eng qulay va eng marg'ub asar hisoblangan. Aynan shu asardan asrlar osha qator mamlakatlarda, shu jumladan Imom al-Buxoriy no-midagi Toshkent islom institutida ham darslik sifatida foydalanib kelinmoqda.

Asar yozilgan Marg'ilondagi hujra o'rnida Prezidentimiz tashabbusi bilan muhtasham bino barpo etilgan. Bundan tashqari Marg'ilon shahriga janubiy tomondan kiraverishga "Al-Hidoya" kitobining ramzi tushirilgan koshona bor.

### Najmiddin Kubro
( 1145 - 1221 )

Najmiddin Kubro 1145 yili Xiva shahrida tug'ilgan. KUBRO - ulug'larning ulug'i - bu uning taxallusi bo'lib, shariat va tariqat ilmining buyuk donishmandi bo'lganligi uchun shunday taxallus olgan. Najmiddin. – «dinning yulduzi» nomi bilan ham dong taratgan.



U iste'dodli muridlar tayyorlashda mahorat ko'rsatgani uchun «Shayxi valiytarosh», (valiylarni voyaga yetkazuvchi) nom bilan ham ataganlar.

Asl nomi Ahmad ibn Muhammad al-Xivakiy al-Xorazmiy bo'lib, kunyasi «Abduljanob» (taqvodorlar otasi)dir.

Najmiddin Kubro tariqat va futuvvatni (javonmardlikni) birbiriga qo'shdi, axloqiy poklik, mardlik, hojatbarorlik g'oyalarini targ'ib etdi. Ilohni sevish bilan yaxshi insonlarni sevishni birga olib qaradi, nafsni qattiq mazzammat etib, ya'ni qoralab, ulug' taqvo piri sifatida nom chiqardi. Najmiddin Kubro asos solgan Kubroviya tariqati Osiyo va Afrikadagi musulmon mamlakatlariga tarqalib, minglab muxlislarga ega bo'ldi.

Uning ta'limoti xalqlarning milliy o'ziga xosligi, turmush tarzi, fikr yuritishdagi xususiyatlari va milliy mentalitetining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sirni o'rganish va bilish milliy o'zligimizni aniqlashda katta ahamiyatga egadir.

Najmiddin Kubro mug'ul bosqinchilariga qarshi shiddatli jangda o'z muridlari bilan birga shahid bo'lgan.

Najmiddin Kubro ulug' ruhoniy shayx, karomatli donishmand faylasuf va vatan uchun jon fido qilgan buyuk inson sifatida bizga aziz va faxr-ibrat namunasidir.

### Bahouddin Naqshband
( 1318 – 1389 )

O'z nomi bilan atalgan «Naqshbandiylik» oqimi, ya'ni shu tariqatning asoschisi bo'lgan Muhammad ibn Muhammad Baxouddin Naqshband al-Buxoriy, Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida 1318-yilda tug'ilgan va shu yerda 1389-yilda vafot etgan. U tug'ilgan qishloq keyinchalik uning sharofati bilan Qasri Orifon nomini olgan.

**Asarlari:** «Arbobi urfon», «Dalil ul-oshiqin», «Avrod» va boshqalar.

Naqshband Boboiy Sammosiy qo'lida tarbiya topgan. Keyinchalik unga Said Mirkulol rahnamolik qilgan. Bu inson atoqli mutasavvuf olim bo'lib Bahouddinning har tomonlama kamol topishiga o'z hissasini qo'shgan.

Baxouddin Naqshband va uning ta'limoti Markaziy Osiyo ijtimoiy – falsafiy, diniy – ahloqiy va badiiy fikr taraqqiyotiga asrlar davomida jiddiy ta'sir ko'rsatib keldi. Bu ta'limot asosida 11 rashha - qoida va ixtiyoriy ravishdagi faqirlik hamda «Dil ba yoru, dast ba

kor» (Diling Allohning muhabbati bilan, qo'l ish bilan band bo'lsin) degan g'oya yotadi. Naqshbandiylik mustaqil O'zbekiston hamda o'zbek millatining o'tmishi, falsafiy va ma'naviy merosini o'rganishga va milliy tiklanishimizga xizmat qiladi.

1993-yilda O'zbekistonda Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi keng tantanalar bilan nishonlandi. Xalqaro konferensiyalar bo'lib o'tdi, uning yodgorligi qaytadan tiklandi.

### Ahmad Yassaviy
( 1041 – 1166 )

Ahmad Yassaviy Qozog'istonning Sayram shahrida ma'rifat va javonmardlikka ixlosi baland bo'lgan nufuzli Ibrohim ota oilasida 1041 yilda tug'ilgan. Yetti yoshida Yassiga borib, birinchi ma'naviy ustozi Arslonbobo bilan uchrashgan va ilk saboqni undan olgan.

Ahmad Yassaviy yozish an'anasini boshlab bergan. Ijodkor «Devoni Hikmat» asarida shariat ( islom dini qonun-qoidalari va urf-odatlari), tariqat (tasaffuf maslagi), ma'rifat (ishqi ilohiy), haqiqat (Alloh va unga erishmoqlik)ni targ'ib qiladi.

Ahmad Yassaviy fikricha haqiqat - qalbda, Qalb esa Allohning mulki. Butun Olam bilan ruhan uyg'unlashish – Oliy Saodat. Saodat esa ma'rifat nurlari bilan ong va ruhni tiniqlashtirishdir.

Uning she'rlarini har satriga «hikmat» unvoni berilgan. Ular to'planib, kitob shakliga keltirilib, 1878-yilda Ahmad Yassaviy asarlari to'plami nashr qilingan.

Rivoyatlarga ko'ra u 63 yosh - payg'ambar yoshiga yetgach, yer ostiga hujra qildirib, «chilla»ga kirgan, Qolgan umrini toat-ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, riyozatlar chekib, yer ostida o'tkazgan. Bir rivoyatga ko'ra u 125 yil, boshqa rivoyatga ko'ra 133 yil yashagan.

Bahouddin Naqshbandga taalluqli «Dil ba yoru, dast ba kor» iborasini ham ilk bor Ahmad Yassaviy turkiy hikmatlarida «Niyating Xudoda, qo'ling ishda» tarzida bayon etgan.

Yuqoridagi va boshqa ko'plab ma'naviyatimiz yulduzlari haqida batafsilroq ma'lumot olmoqchi bo'lsangiz, "Ma'naviyatimiz yulduzlari" nomli (*Toshkent, 2001 yil, A. Qodiriy nomidagi "Xalq me'rosi" nashriyoti*) kitobdan foydalanishingiz mumkin.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI OLIY O'QUV YURTLARI

### QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

1. Qoraqalpoq davlat universiteti
2. Nukus davlat pedagogika instituti
3. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filiali
4. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali
5. Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali

### TOSHKENT SHAHRI

1. O'zbekiston milliy universiteti
2. Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti
3. O'zbek davlat jahon tillari universiteti
4. O'zbek davlat jismoniy tarbiya instituti
5. O'zbek davlat konservatoriyasi
6. O'zbekiston davlat sa'nat va madaniyat instituti
7. Toshkent davlat arxitektura-qurilish instituti
8. Toshkent davlat avtomobil-yo'llar instituti
9. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
10. Toshkent davlat agrar universiteti
11. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
12. Toshkent davlat pedagogika universiteti
13. Toshkent davlat texnika universiteti
14. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
15. Toshkent davlat yuridik instituti
16. Toshkent farmasevtika instituti
17. Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti
18. Toshkent islom universiteti
19. Toshkent kimyo-texnologiya instituti
20. Toshkent moliya instituti
21. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
22. Toshkent temir yo'l transporti muhandislari instituti
23. Toshkent tibbiyot akademiyasi
24. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti
25. Milliy rassomchilik va dizayn instituti
26. Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi

## ANDIJON VILOYATI

1. Andijon davlat universiteti
2. Andijon qishloq xo'jalik instituti
3. Andijon tibbiyot instituti
4. Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti

## BUXORO VILOYATI

1. Buxoro davlat universiteti
2. Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik-texnika instituti
3. Buxoro davlat tibbiyot instituti
4. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

## JIZZAX VILOYATI

1. Jizzax davlat pedagogika instituti
2. Jizzax davlat politexnika instituti

## NAVOIY VILOYATI

1. Navoiy davlat pedagogika instituti
2. Navoiy davlat konchilik instituti

## NAMANGAN VILOYATI

1. Namangan davlat universiteti
2. Namangan muhandislik-pedagogika instituti
3. Namangan muhandislik-texnologiya instituti

## SAMARQAND VILOYATI

1. Samarqand davlat universiteti
2. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti
3. Samarqand davlat chet tillar instituti
4. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
5. Samarqand qishloq xo'jalik instituti
6. Samarqand tibbiyot instituti
7. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

## SURXONDARYO VILOYATI

1. Termiz davlat universiteti

## SIRDARYO VILOYATI

1. Guliston davlat universiteti



## TOSHKENT VILOYATI

1. Toshkent davlat pedagogika universiteti

## FARG'ONA VILOYATI

1. Farg'ona davlat universiteti
2. Farg'ona politexnika instituti
3. Qo'qon davlat pedagogika instituti.
4. Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filiali
5. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali

## XORAZM VILOYATI

1. Urganch davlat universiteti
2. Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
3. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali

## QASHQADARYO VILOYATI

1. Qarshi davlat universiteti.
2. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
3. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali

Respublikamizda bugun 6 ta xalqaro oliygoh hamda chet el oliygohlari filiallari, jumladan Xalqaro Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiyaning Lomonosov nomidagi davlat universiteti, Gubkin nomidagi neft va gaz universiteti hamda G.Plexanov nomidagi iqtisodiyot univer-sitetining Toshkent filiallari, bir nechta maxsus oliy harbiy bilim yurtlari faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 24-martdagi PQ-2755-sonli Qarori bilan Toshkentda Janubiy Koreyaning INXA universiteti tashkil etildi.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI VA ICHKI ISHLAR VAZIRLIGINING OLIY HAMDA MAXSUS HARBIY TA'LIM MUASSASALARI

1. Qurolli Kuchlar akademiyasi
2. Oliy harbiy bojxona instituti
3. Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
4. Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti,
5. Chirchiq oliy tank qo'mondon-muhandislik bilim yurti
6. Samarqand oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik bilim yurti

7. Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti
8. Toshkent axborot texnologiyalari universitetining maxsus fakulteti
9. Toshkent oliy xarbiy-texnika bilim yurti
10. Yong'in xavfsizligi oliy texnika maktabi
11. Serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kurslari

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JORIY ETILGAN HARBIY (MAXSUS) UNVONLAR

**I. Oddiy askarlar tarkibi:**

| | |
|---|---|
| Oddiy askar. | Matros. |

**II. Serjantlar va starshinalar tarkibi:**

| | |
|---|---|
| Kichik serjant. | 2-darajali starshina. |
| Serjant. | 1-darajali starshina. |
| Katta serjant. | Bosh starshina. |

**III. Ofitserlar tarkibi :**

**Kichik ofitserlar tarkibi:**

| | |
|---|---|
| Leytenant. | Leytenat. |
| Katta leytenant, | Katta leytenat. |
| Kapitan. | Kapitan – leytenat. |

**Katta ofitserlar tarkibi:**

| | |
|---|---|
| Mayor. | 3-darajali kapitan, |
| Podpolkovnik. | 2-darajali kapitan, |
| Polkovnik. | 1-darajali kapitan. |

**IV. Generallar tarkibi:**

General-mayor
General-leytenant
General-polkovnik

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURASI IDORALARI XODIMLARIGA BERILADIGAN MAXSUS UNVONLAR

**I. Oliy darajali maxsus unvonlar:**

Hakikiy Davlat maslahatchisi,
1-darajali Davlat adliya maslahatchisi.
2-darajali Davlat adliya maslahatchisi.
3-darajali Davlat adliya maslahatchisi.



**II. Yuqori darajali maxsus unvonlar:**

Adliya katta maslahatchisi.
Adliya maslahatchisi.
Adliya kichik maslahatchisi.

**III. Quyi darajali maxsus unvonlar:**

1-darajali yurist.
2-darajali yurist,
3-darajali yurist.
Kichik yurist.

## SOLIQ IDORALARINING MANSABDOR SHAXSLARIGA BERILADIGAN MAXSUS UNVONLAR:

Soliq xizmatining Bosh Davlat maslahatchisi.
Soliq xizmatining 1-darajali Davlat maslahatchisi.
Soliq xizmatining2-darajali Davlat maslahatchisi.
Soliq xizmatining 3-darajali Davlat maslahatchisi.
Soliq xizmatining 1-darajali maslahatchisi.
Soliq xizmatining 2-darajali maslahatchisi.
Soliq xizmatining 3-darajali maslahatchisi.
Soliq xizmatining 1-darajali inspektori.
Soliq xizmatining 2-darajali inspektori.
Soliq xizmatining 3-darajali inspektori.
Soliq xizmatining inspektori.

## O'ZBEKISTON AVTOMOTOTRANSPORT VOSITALARIGA BERILADIGAN HUDUDIY KODLAR VA DAVLAT RAQAM BELGILARI

| | |
|---|---|
| Toshkent shahri | 01-09 |
| Toshkent viloyati | 10-19 |
| Sirdaryo viloyati | 20-24 |
| Jizzax viloyati | 25-29 |
| Samarqand viloyati | 30-39 |
| Farg'ona viloyati | 40-49 |
| Namangan viloyati | 50-59 |
| Andijon viloyati | 60-69 |
| Qashqadaryo viloyati | 70-74 |
| Surxondaryo viloyati | 75-79 |
| Buxoro viloyati | 80-84 |

| | |
|---|---|
| Navoiy viloyati | 85-89 |
| Xorazm viloyati | 90-94 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi. | 95-99 |

I tip belgilar - Yuridik shaxslarning avtomobillariga beriladi: chap tomonda hududning kodi, o'ng tomonda belgilangan raqamlar va harflar hamda O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va UZ harflari.

II tip belgilar - Oliy davlat organlari, boshqaruv organlari va vazirliklarning avtomobillariga beriladi: chap tomonda O'zbekiston Respublikasi bayrog'i, o'ng tomonda belgilangan harflar va raqamlar.

III tip belgilar - Jismoniy shaxslar avtomobillariga beriladi: chap tomonda hududning kodi, o'ng tomonda bitta harf, uchta raqam, bitta harf va O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va UZ harflari.

Bulardan tashqari diplomatik vakolatxonalar va xorijiy fuqarolar avtomobillariga beriladigan davlat raqami belgilari joriy etilgan.

## MDH MAMLAKATLARIDA AHOLINING HŎZIRGI VA ISTIQBOLDAGI SONI

| *Mamlakatlar* | *Yillarga ko'ra aholi soni (mln. kishi)* | | |
|---|---|---|---|
| | 2005 | 2025 | 2050 |
| Armaniston | 3,0 | 3,0 | 3,5 |
| Belarus | 9,8 | 9,4 | 8,5 |
| Gruziya | 4,5 | 3,1 | 3,0 |
| Moldova | 4,2 | 3,9 | 3,0 |
| Ozarbayjon | 8,4 | 9,7 | 11,6 |
| Rossiya | 143,2 | 136,9 | 119,1 |
| Tojikiston | 6,5 | 8,6 | 10,0 |
| Turkmaniston | 4,8 | 7,6 | 8,7 |
| Ukraina | 46,5 | 45,1 | 38,4 |
| O'zbekiston | 26,6 | 36,9 | 48,5 |
| Qirg'iziston | 5,3 | 6,7 | 8,2 |
| Qozog'iston | 14,8 | 15,8 | 14,8 |

*Manba:* (E.Ahmedov, Z. Saydaminova, O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumot, Toshkent, "O'zbekiston". 2006 yil.)



## MUSTAQILLIK YILLARINING ENG MUHIM SANALARI

**1991-yil, 31-avgust** - Prezident I.Karimov Respublika Oliy Kengashining VI sessiyasida O'zbekistonning Davlat mustaqilligini e'lon qildi.

**1991-yil, 18-noyabr** - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonunni kuchga kiritish haqida qarori e'lon qilindi.

**1992-yil, 30-yanvar** - O'zbekiston EXXTga a'zo bo'ldi.

**1992-yil, 2-mart** - O'zbekiston BMTga a'zo bo'ldi.

**1992-yil, 2-iyul** - O'zbekiston Davlat gerbi qabul qilindi.

**1992-yil, 1-sentyabr** - O'zbekiston Qo'shilmaslik harakatiga a'zo bo'ldi.

**1992-yil, 8-dekabr** - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

**1992-yil, 10-dekabr** - Oliy Kengash O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasini (gimn) tasdiqladi.

**1993-yil, 3-sentyabr** - "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

**1994-yil, sentyabr** - I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida nutq so'zladi.

**1994-yil, 1-iyul** - Milliy valyuta (so'm) muomalaga kiritildi.

**1995-yil, 1-yanvar** - Yangi pasport amalga kiritildi.

**1996-yil, 25-mart** - Asaka zavodidan dastlabki avtomobillar chiqa boshladi.

**1997-yil, 29-avgust** - "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.

**2001-yil15-iyun** - O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'ldi.

**2004-yil 16-iyun** - O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risidagi shartnoma imzolandi.

**2005-yil 14-noyabr** - O'zbekiston va Rossiya o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma imzolandi.

**2008-yil 3-aprel** - O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A Karimov NATO/SEAP tashkilotining Buxarestdagi sammitida ishtirok etdi va Afg'oniston muammosini bartaraf etish bo'yicha yangi tashabbuslar bilan chiqdi

**2010-yil 10-11-iyun** - Toshkent shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi.

2012-yil 1-sentyabr - O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 21 yil-ligi nishonlandi.

## QIZIQARLI O'LCHOVLAR

XIII asrda mashhur italiyalik sayyoh Marko Polo Xitoyga borib, bu mamlakat boyligini ifodalash maqsadida "million" so'zini o'ylab topgan (ming ming degan ma'noni bildiradi) . Ammo "million" so'zi so'nggi hisobdagi so'nggi ulkan raqamni bildirmaydi.

### E'TIBORINGIZGA:

| | |
|---|---|
| Million - birning yonidagi nollar soni | 6 |
| Milliard - birning yonidagi nomer soni | 9 |
| Trillion - birning yonidagi nollar soni | 12 |
| Kvadrillion - birning yonidagi nollar soni | 15 |
| Kvintillion - birning yonidagi nollar soni | 18 |
| Sekstillion - birning yonidagi nollar soni | 21 |
| Septillion - birning yonidagi nollar soni | 24 |
| Oktillion - birning yonidagi nollar soni | 27 |
| Nonillion - birning yonidagi nollar soni | 30 |
| Detsillion - birning yonidagi nollar soni | 33 |
| Undetsillion - birning yonidagi nollar soni | 36 |
| Dodetsillion - birning yonidagi nollar soni | 39 |
| Gugol - birning yonidagi nollar soni | 100 |

- Million qadam yursangiz 600 km. yo'l bosgan bo'lasiz.
- Bir qator saf tortgan bir million kishi 250 km. masofani egallaydi.
- Angishvonada bir million marta olingan suv qariyb bir tonna bo'ladi.
- Million betli kitobning qalinligi 50 km. ga etadi.
- Eramiz boshlangandan buyon hali million kun o'tgan emas.

### AYRIM XALQARO O'LCHOV BIRLIKLARI

| | | | |
|---|---|---|---|
| Milya | *1,609344 km* | Funt | *453,6 gramm* |
| Yard | *0,9144 m.* | Untsiya | *28,3495 gramm* |
| Fut | *0,3048 m.* | Gran | *64,8 mg.* |
| Dyuym | *2,54 sm* | Gektar | *10 000 kv. m.* |
| Barrel | *158,998 litr* | Akr | *4047 kv. m* |
| Gallon | *3,785 litr* | Karat | *0,2 mg* |



## BUNI BILIB OLING!

### O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi**

Tashkil topgan vaqti -1992 yil 9 yanvar
Poytaxti - Nukus shahri (aholisi 271,4 ming kishi - 2010 y.)
Hududi - 166,6 ming kv. km
Aholisi - 1 704,4 ming kishi. (01.10.12 y)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Amudaryo | Mang'it sh |
| Beruniy | Beruniy sh |
| Qonliko'l | Qonliko'l sh/ch |
| Qorao'zak | Qorao'zak sh |
| Kegeyli | Kegeyli sh/ch |
| Qo'ng'irot | Qo'ng'irot sh |
| Mo'ynoq | Mo'ynoq sh |
| Nukus | Oqmangit sh/ch |
| Taxtako'prik | Taxtako'prik sh/ch |
| To'rtko'l | To'rtko'l sh |
| Xo'jayli | Xo'jayli sh |
| Chimboy | Chimboy sh |
| Shumanay | Shumanay sh |
| Ellikqal'a | Bo'ston sh |

Respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar: Beruniy, Qo'ng'irot, Nukus, Taxiyatosh, To'rtko'l, Xo'jayli, Chimboy.
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Bo'ston, Mang'it, Mo'ynoq, Xalqobod, Shumanay.

**Andijon viloyati**

Tashkil etilgan vaqti -1941 yil 6 mart
Markazi - Andijon shahri (aholisi 380 ming kishi - 2012 y.)
Hududi - 4,24 ming kv. km.
Aholisi - 2 744,8 ming kishi.(01.10.12 y)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Andijon | Kuyganyor sh/ch |
| Oltinko'l | Oltinko'l q |
| Asaka | Asaka sh |
| Baliqchi | Baliqchi q |
| Bo'z | Bo'z sh/ch |
| Buloqboshi | Buloqboshi sh |
| Jalaquduq | Oxunboboev sh |
| Izboskan | Poytug' sh/ch |
| Qo'rg'ontepa | Qo'rg'ontepa sh |
| Marhamat | Marhamat sh |
| Paxtaobod | Paxtaobod sh |
| Ulug'nor | Oqoltin q |
| Xo'jaobod | Xo'jaobod sh |
| Shahrixon | Shahrixon sh |

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Andijon, Asaka, Xonobod.
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Oxunboboev, Qorasuv, Qo'rg'ontepa, Marhamat, Poytug', Paxtaobod, Xojaobod, Shahrixon.

**Buxoro viloyati**

Tashkil etilgan vaqti - 1938 yil 15 aprel
Markazi - Buxoro (aholisi 267,0 ming kishi - 2010 y.)
Hududi - 40,30 ming kv. km.
Aholisi - 1 723,5 ming kishi. (01.10.12 y)

**Jizzax viloyati**

Tashkil etilgan vaqti - 1973 yil 29 dekabr
Markazi - Jizzax (aholisi 139,1 ming kishi - 2007 y.)
Hududi - 21,4 ming kv. km.
Aholisi - 1 200,2 ming kishi. (01.10.12 y)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Olot | Olot sh |
| Buxoro | G'allaosiyo sh |
| Vobkent | Vobkent sh |
| G'ijduvon | G'ijduvon sh |
| Jondor | Jondor sh/ch |
| Kogon | Kogon sh |
| Qorako'l | Qorako'l sh |
| Qorovulbozor | Qorovulbozor sh |
| Pushkin | Yangibozor sh |
| Romiton | Romiton sh |
| Shofirkon | Shofirkon sh |

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Buxoro, Kogon.
Tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlar: Olot, Vobkent, Gazli, G'allasaroy, G'ijduvon, Qorako'l, Qorovulbozor, Romiton, Shofirkon.

## Qashqadaryo viloyati

Tashkil etilgan vaqti - 1924 yil 12 iyul
Markazi - Qarshi (aholisi 238,2 ming kishi - 2010 y.)
Hududi - 28,6 ming kv. km.
Aholisi - 2 813,8 ming kishi. (01.11.12 y)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| G'uzor | G'uzor sh |
| Dehqonobod | Karashina q |
| Qamashi | Qamashi sh |
| Qarshi | Beshkent sh |
| Koson | Koson sh |
| Kasbi | Mug'lon q |
| Kitob | Kitob sh |

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Arnasoy | G'oliblar q |
| Baxmal | Usmat sh/ch |
| G'allaorol | G'allaorol sh |
| Jizzax | Uchtepa q |
| Do'stlik | Do'stlik sh |
| Zomin | Zomin sh/ch |
| Zarbdor | Zarbdor sh/ch |
| Zafarobod | Zafarobod sh/ch |
| Mirzacho'l | Gagarin sh |
| Paxtakor | Paxtakor sh |
| Forish | Yangiqishloq sh/ch |
| Yangiobod | Balandchaqir sh/ch |

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Jizzax.
Tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlar: Gagarin, G'allaorol, Dashtiobod, Do'stlik, Marjonbuloq, Paxtakor.

## Samarqand viloyati

Tashkil etilgan vaqti - 1938 yil 15 yanvar
Markazi - Samarqand (aholisi 386,6 ming kishi. - 2011 y.)
Hududi - 16,77 ming kv. km.
Aholisi - 3 365,3 ming kishi. (01.11.12 y)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Oqdaryo | Loyish sh/ch |
| Bulung'ur | Bulung'ur sh |
| Jomboy | Jomboy sh |
| Ishtixon | Ishtixon sh |
| Kattaqo'rg'on | Payshanba sh/ch |
| Qo'shrabot | Qo'shrabot q |
| Narpay | Oqtosh sh |



| | |
|---|---|
| Mirishkor | Yangi Mirishkor q |
| Muborak | Muborak sh |
| Nishon | Yangi Nishon sh |
| Chiroqchi | Chiroqchi sh |
| Shahrisabz | Shahrisabz sh |
| Yakkabog' | Yakkabog' sh |
| | |

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Qarshi.
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Beshkent, G'uzor, Qamashi, Koson, Muborak, Talimarjon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Yangi-Nishon.

## Navoiy viloyati

Tashkil etilgan vaqti – 1982-yil 20-aprel
Markazi - Navoiy (aholisi 131,0 ming kishi - 2010 y.)
Hududi - 110,99 ming kv. km.
Aholisi - 886,5 ming kishi. (01.10.12 y)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Konimex | Konimex sh/ch |
| Qiziltepa | Qiziltepa sh |
| Navbahor | Beshrabod q |
| Karmana | Karmana sh/ch |
| Nurota | Nurota sh |
| Tomdi | Tomdibuloq q |
| Uchquduq | Uchquduq sh |
| Xatirchi | Yangirobod sh |
| • | |
| | |
| | |

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Zarafshon, Navoiy.
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Qiziltepa, Nurota, Uchquduq, Yangirobod.

| | |
|---|---|
| Nurobod | Nurobod sh |
| Poyariq | Poyariq sh |
| Pastdarg'om | Juma sh |
| Paxtachi | Zoyidon sh/ch |
| Samarqand | Gulobod q |
| Toyloq | Toyloq q |
| Urgut | Urgut sh |

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Kattaqo'rg'on, Samarqand.
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Oqtosh, Bulung'ur, Jomboy, Juma, Ishtixon, Poyariq, Nurobod, Urgut, Chelek.

## Namangan viloyati

Tashkil etilgan vaqti – 1941-yil 6-mart
Markazi - Namangan (aholisi 449,2 ming kishi - 2011 y.)
Hududi - 7,44 ming kv. km.
Aholisi - 2 448,8 ming kishi. (01.10.12 y)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Kosonsoy | Kosonsoy sh |
| Mingbuloq | Jomasho'y sh/ch |
| Namangan | Toshbuloq sh/ch |
| Norin | Xaqqulobod sh |
| Pop | Pop sh |
| To'raqo'rg'on | To'raqo'rg'on sh |
| Uychi | Uychi sh/ch |
| Uchqo'rg'on | Uchqo'rg'on sh |
| Chortoq | Chortoq sh |
| Chust | Chust sh |
| Yangiqo'rg'on | Yangiqo'rg'on sh/ch |

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Namangan.
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Kosonsoy, Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on,

## Surxondaryo viloyati

Tashkil etilgan vaqti –
1941 yil 6 mart
Markazi - Termiz
(aholisi 150 ming kishi - 2012 y)
Hududi - 20,1 ming kv. km.
Aholisi - 2 248,3 ming kishi. (01.10.12 y)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Oltinsoy | Qarluq q |
| Angor | Angor sh/ch |
| Boysun | Boysun sh |
| Bandixon | Bandixon q |
| Denov | Denov sh |
| Jarqo'rg'on | Jarqo'rg'on sh |
| Qumqo'rg'on | Qumqo'rg'on sh |
| Qiziriq | Sariq sh/ch |
| Muzrabod | Xalqobod q |
| Sariosiyo | Sariosiyo sh/ch |
| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
| Termiz | Uchqizil sh/ch |
| Uzun | Uzun q |
| Sherobod | Sherobod sh |
| Sho'rchi | Sho'rchi sh |
| | |

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Termiz.
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sharg'un, Sherobod, Sho'rchi.

Xaqqulobod, Chortoq, Chust.

## Toshkent viloyati

Tashkil etilgan vaqti –
1938 yil 15 yanvar
Markazi - Toshkent
(aholisi 2 339,6 ming kishi - 2012 y)
Hududi - 15,6 ming kv. km.
Aholisi - 2 689,7 ming kishi.(01.10.12 y)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Oqqo'rg'on | Oqqo'rg'on sh |
| Ohangaron | Ohangaron sh |
| Bekobod | Zafar sh/ch |
| Bo'stonliq | G'azalkent sh |
| Bo'ka | Bo'ka sh |
| Zangiota | Eshonguzar sh/ch |
| Qibray | Qibray sh/ch |
| Quyichirchiq | Do'stobod sh |
| Parkent | Parkent sh |
| Pskent | Pskent sh |
| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
| Toshkent | Keles sh |
| O'rtachirchiq | To'ytepa sh |
| Chinoz | Chinoz sh |
| Yuqorichirchiq | Yangibozor sh/ch |
| Yangiyo'l | Gulbahor sh/ch |

Respublikaga bo'ysunuvchi shahar: Toshkent.
Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Olmaliq, Angren, Ohangaron, Bekobod, Chirchiq, Yangiyo'l.
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Oqqo'rg'on, Bo'ka, G'azalkent, Do'stobod, Keles, Parkent, Pskent, To'ytepa, Chinoz, Yangiobod.



## Sirdaryo viloyati

Tashkil etilgan vaqti - 1963 yil 16 fevral
Markazi - Guliston (aholisi 77,3 ming. kishi. - 2010 y.)
Hududi - 4,3 ming. kv. km.
Aholisi - 747.6 ming. kishi.(01.10.12 y.)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Oqoltin | Sardoba q |
| Boyovut | Boyovut sh/ch |
| Guliston | Dehqonobod sh/ch |
| Mirzaobod | Navro'z q |
| Sardoba | Paxtaobod sh/ch |
| Sayxunobod | Sayxun sh/ch |
| Sirdaryo | Sirdaryo sh |
| Xovos | Xovos sh/ch |
| | |
| | |

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Guliston, Shirin, Yangier.
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Baxt, Sirdaryo.

## Xorazm viloyati

Tashkil etilgan vaqti - 1938 yil 15 yanvar
Markazi - Urganch (aholisi 135,1 ming. kishi. - 2010 y.)
Hududi - 6,05 ming. kv. km.
Aholisi - 1 645,3 ming. kishi.(01.10.12 y)

| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi |
|---|---|
| Bog'ot | Bog'ot q |
| Gurlan | Gurlan sh/ch |
| Qo'shko'pir | Qo'shko'pir sh/ch |
| Urganch | Qorovul q |
| Hazorasp | Hazorasp sh/ch |
| Xonqa | Xonqa sh/ch |
| Xiva | Xiva sh |
| Shovot | Shovot sh/ch |
| Yangiariq | Yangiariq |
| Yangibozor | Yangibozor sh/ch |

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Urganch.
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Pitnak, Xiva.

| Farg'ona viloyati | | Shartli qisqartmalar | |
|---|---|---|---|
| Tashkil etilgan vaqti - 1938 yil 15 yanvar<br>Markazi - Farg'ona (aholisi 234,7 ming kishi. - 2010 y.)<br>Hududi - 6,76 ming. kv. km.<br>Aholisi - 3 316,8 ming. kishi (01.10.12 y) | | | |
| Tumanlar nomi | Ma'muriy markazi | sh. | Shahar |
| Oltiariq | Oltiariq sh/ch | q. | Qishloq |
| Qo'shtepa | Langar q | sh/ch. | Shaharcha |
| Bog'dod | Bog'dod sh/ch | | |
| Beshariq | Beshariq sh | Xaritada joylashishi | |
| Buvayda | Yangiqo'rg'on q | 1 | Qoraqalpog'iston Respublikasi |
| Dang'ara | Dang'ara sh/ch | 2 | Andijon viloyati |
| Quva | Quva sh | 3 | Buxoro viloyati |
| Rishton | Rishton sh | 4 | Jizzax viloyati |
| So'x | Rovon q | 5 | Qashqadaryo viloyati |
| Toshloq | Toshloq sh/ch | 6 | Samarqand viloyati |
| O'zbekiston | Yaypan sh | 7 | Navoiy viloyati |
| Uchko'prik | Uchko'prik q | 8 | Namangan viloyati |
| Farg'ona | Vodil q | 9 | Surxondaryo viloyati |
| Furqat | Navbahor q | 10 | Toshkent viloyati |
| Yozyovon | Yozyovon sh/ch | 11 | Surxondaryo viloyati |
| | | 12 | Xorazm viloyati |
| Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Qo'qon, Quvasoy, Marg'ilon, Farg'ona.<br>Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar: Beshariq, Quva, Rishton, Hamza, Yaypan. | | 13 | Farg'ona viloyati |



## NOBEL MUKOFOTI TO'G'RISIDA NIMALARNI BILASIZ?

Taniqli shved ixtirochisi va tadbirkori Alfred Bernxard Nobel 1895 yili o'z mol-mulkini o'limidan so'ng fizika kimyo, meditsina (fiziologiya), adabiyot sohasida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan olimlar, va dunyoda tinchlikni mustahkamlashga buyuk xizmatlari singgan arboblarga mukofot tariqasida berishni vasiyat qilgan edi.

Bu mukofotlar 1901 yildan boshlab berib kelinmoqda. 1968 yili Shvetsiya Markaziy banki - "Riksbank"ning 300 yilligi munosabati bilan va Nobel xotirasiga chuqur ehtirom yuzasidan iqtisodiyot bo'yicha ham mukofot ta'sis etildi. Hozirgi davrda mavjud oltita mukofotning beshtasi Shvetsiya Qirollik akademiyasi, tinchlik bo'yicha mukofot esa Norvegiya (Oslo) Nobel qo'mitasi tomonidan berib kelinmokda. Mukofotlanganlar nomi an'anaga ko'ra A.Nobel tavalud topgan oktyabr oyida e'lon qilinadi va u vafot etgan 10 dekabr kuni tantanali ravishda topshiriladi.

Har bir mukofot Nobel fondidagi pul miqdoriga qarab o'zgarib turadi. 2011-yili 1,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2013 yilgacha 840 kishi (ular orasida 44 ta ayol) va 17 ta tashkilot Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – Yengilmas kuch. – T: "Manaviyat". 2008

2.I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida – T: "O'zbekiston" 2011 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PQ-451-son qarori.

4. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: "Yangi asr avlodi", 2001 yil.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston" 2008 yil.

6. Shermuhammedov S. Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz? -T.: "O'zbekis-ton", 1999 yil.

7. O'zbekiston Respublikasi ma'lumotlar kitobi. T:. "Yangi asr avlodi", 2011 yil.

8. "O'zbekiston Respublikasi ramzlari".T:. "Ma'naviyat" 2013 yil.

9.Tyurikov V., Shog'ulomov R. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi: Unutil-mas voqealar va sanalar (1991-1996).- T:. "O'zbekiston", 1998 yil.

10.O'zbekiston Respublikasi. Entsiklopedik ma'lumotnoma. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyot.i -T:. 2007 yil.

11. "Dunyo, Siyosat, Jamiyat" (tuzuvchi Orif Ayupov.) –Guliston, "Ziyo", 2013 yil.

12. Rasmiy internet saytlari ma'lumotlari

13. O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari. -T:. "Adolat", 2007 yil.

14. O'zbekiston davriy matbuoti.

15. Axmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi (qisqacha ma'lumotnoma) T., "O'zbekiston", 1996yil.

16. "Postda" gazetasi, 12.03.2011 yil

17. F. Xolsaidov, O'. Boboyorov, F. Hasanova "Ma'naviyat - qalb quyoshi", -T.: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011 yil.

18. Rajabov Q., Qandov B., Shaymardonov I. O'zbekiston tarixining muhim sanalari (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha) 3-nashri. -T.: "O'zbekis-ton", 2010

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Mustaqil-lik – barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir" risolasi - O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma.- T.: "O'qituvchi" NMIU, 2013.

ISBN 978-9943-4341-8-9